

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI KAFEDRASI

O'zbek adabiyotida No'shiravon obrazi

(malakaviy bitiruv ishi)

Bajardi:

Ziyadullayeva Dilrabo

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots. Xoliqulova G.

SAMARQAND -2013

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘zbek filologiyasi
fakulteti 4-kurs talabasi Ziyadullayeva Dilraboning «O‘zbek adabiyotida
No‘shiravon obrazi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Rejasi

Ishning umumiy tavsifi

- mavzuning dolzarbligi;
- tadqiqotning o‘rganilish darajasi;
- ishning ilmiy yangiligi;
- tadqiqotning maqsad va vazifalari;
- tadqiqot natijalarining ilmiy amaliy ahamiyati;
- ishning tuzilishi va hajmi.

I.Bob. No‘shiravon obrazi va uning manbalari.

- 1.1. No‘shiravon – adolatli podshoh.
- 1.2. No‘shiravon obrazining manbalari.

II. Bob. No‘shiravon obrazi: tahlil va talqin.

- 2.1. Epik she’riyatda No‘shiravon obrazi.
- 2.2. Lirikada No‘shiravon obrazi.

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek xalqining milliy, ma’naviy, madaniy merosi ming yillar davomida jamiyatni va jamiyatni quruvchi shaxsni barkamollik ruhida tarbiyalab kelayotgan qudratli manbadir. O‘zbekiston xalqi minglab yillar davomida barpo etilgan ulkan madaniy meros bilan faxirlanadi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili madaniyati, qadryatlari tarixini bilishga intilish ortib bordi. Bu-tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullasiki, vatanining tarixini bilishni istaydi. Biror-bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlari, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadryatlarni rivojlantirmay o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning ma’naviy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar moboynda Sharq xalqlari uchun qudratli ma’naviya manbai bo‘lib xizmat qilgan. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho ma’naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo‘lga kiritgach, o‘z tarixining ijodkorlarga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib fuqarolarimizning ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbayiga aylanib bormoqda. Bu haqda Prezident I.A.Karimov shunday deydi: “Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tiklash va xalq ongini o‘stirish jarayonida muhim o‘rin tutadi”.¹

Insonning barkamollik sari qo‘yayotgan ana shunday qadamlarida uni bu yo‘l sari chorlovchi manbalaridan biri bu adabiyot hisoblanadi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari ko‘hna tariximizni shonli va buyuk ibratini namoyon qilib turadi. Barcha davrlarda mavjud bo‘lgani kabi mumtoz

¹ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Тошкент, Ўзбекистон, 1997. 140-бет.

adabiyot vakillari ham o'z ijod namunalarida zamon muammolari, qahramonlari, ijtimoiy turmushni qalamga olganlar. Ularning mahorat maktabining shakllanishi uchun ustoz ijodkorlar va ularning adabiy merosi muhim o'rin tutgan. Shuning uchun ham ular yaratgan bebaho asarlarda an'ana va mahorat masalasi muhim qirralardan biri bo'lib qolaveradi. Holbuki, an'analardan holi bo'lgan, u yoki bu adabiyot namunasidan, xalq og'zaki ijodi bo'ladimi, yozma adabiyot namunasi bo'ladimi ta'sirlanmasdan yaratilgan asarlar uchramaydi. Mumtoz asarlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki ulardagi umuminsoniy g'oyalar juda yashovchan bo'lib, har bir yangi davr ruhiga hamohang bo'ladi, ezgulik va adolat, odamiylikni targ'ib etib, kishilarning qalbi va fikriga ijobiy ta'sir etadi.

Shu sababli ham biz Firdavsiy, Sa'diy, Jomiy, Navoiy, Bobur va boshqa buyuk adiblarning asarlarini sevib o'qiymiz, ulardan ruhlanamiz, turmushda ularni o'zimizning hamrohimiz deb bilamiz. Bu insonparvar g'oyalarning o'lmasligiga, tarixiy sharoitga moslashib, yangi kuch-qudrat bilan yangrashiga dalildir. Xususan, inson omili birinchi bosqichga ko'tarilgan, yaxshi insoniy axloqni ulug'lash, poklik, e'tiqod, rostgo'ylik, ma'naviy yetuklikni himoya qilish, ko'proq va dadilroq turmushga tadbqiq etish zo'r ijtimoiy ahamiyat kasb etgan davrda, mumtoz adabiyotda asrlar davomida kuylanib kelingan insonparvar g'oyalarning roli yanada oshdi. Ulug' shoirlar qalamiga mansub nodir asarlar bu jihatdan qayta-qayta o'rganilsa, izchil tekshirilib, ularning bebaho hikmatlari xalqqa yetkazilsa faqat foyda keltiradi.

Ana shu maqsadda biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda Sharqning zabardast shoirlari tomonidan qizg'in va astoydil kuylab kelingan adolat mavzusiga kengroq to'xtalib o'tdik. Bunda, albatta, Sharq adabiyotida an'anaviy No'shiravon-adolatli podshoh obrazi tahliliga hamda bu obrazning ustoz-shogirdlik an'analari zaminida rivojlangan o'ziga xosliklari haqida kengroq ma'lumot berishga harakat qildik. Shu jihatdan olib qaraganda mavzuyimizning dolzarbligi namoyon bo'ladi. Chunki hech bir adabiyot namunasi u kichik

she'r bo'ladimi, u yirik hajmli asar bo'ladimi ma'lum bir izdoshlik va an'anaga muvofiq yaratiladi hamda muallifning mahoratini o'zida namoyon etadi.

Tadqiqotning o'rganilish darajasi. Bizning bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi bo'lgan o'zbek adabiyotida No'shiravon obrazi haqida aniq va atroflicha tadqiqotlar olib borilmagan. Lekin adabiyotimizning iqtidorli fan fidoiylari o'z tadqiqotlarida adolatli podshoh haqidagi fikr-mulohazalarini bildirib o'tganlar va yaxshi natijalarga erishganlar. Jumladan, N. Mallayevning "Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti", M. Muhiddinovning "Adabiy an'ana va ijodiy o'ziga xoslik" va "Komil inson adabiyot idiali", A. Hayitmetovning "Alisher Navoiyning "Tarixi mulki ajam" asari haqida", N. Komilovning "Ma'nolar olamiga safar", A. G'ofurovning "Navoiy lirikasida adolatsiz davr raddiyasi" va "Odil, orif, oqil", M. Oripovning "Alisher Navoiy ijodida adolat g'oyasi", B. Rajabovanning "Shaxs huquqi va adolat talqini", B. Oqbo'tayevning "Navoiy odil podshoh haqida" va boshqa kitob va maqolalarda o'z ifodasini topgan.

Biz yuqorida tilga olingan tadqiqot va maqolalardan foydalangan holda ushbu masalaga yaxlit holda e'tibor qaratdik. Zero, mavjud tadqiqotlar ayni o'zbek adabiyotida No'shiravon obrazini o'rganishga to'g'ridan to'g'ri qaratilgan emas. Balki ularda Navoiy ijodiy mahoratining turli jihatlarini yoritish asnosida to'xtalib ketilgan. Ana shu jihatlarni inobatga olib No'shiravon obrazining fors-tojik va o'zbek adabiyatidagi talqinlarga ham e'tibor qaratdik.

Ishning ilmiy yangiligi. Ushbu qilingan tadqiqot natijasida No'shiravon obrazi bilan bog'liq hikoyat va rivoyatlar tahlilga tortildi, qiyosiy o'rganildi, an'ana va mahorat masalasi nuqtayi nazaridan o'zbek adabiyoti namoyondalarining ijodiy mahorati ochib berildi. Bunda ko'proq No'shiravon obrazining manbalari, epik va lirik she'riyatda No'shiravon obrazi talqiniga e'tibor berishga harakat qildik va har bir ijodkor haqida umumlashma xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Sharq adabiyotida an'anaviy obrazlardan Anishervoni odil adolat timsoli sifatida o'zbek mumtoz adabiyotida ham tez-tez uchraydi. Bu an'anaviy obrazning lirik va epik poeziyadagi talqini bitiruv malakaviy ishimizning asosini tashkil etadi. Ma'lumki, bir-biriga o'xshash yoki g'oyasi, obrazlari, usul-uslubiy yaqin asarlar Sharq adabiyotida juda ko'p. Bunday mushtarak jihatlar qidirib topish va qayd etishning o'zi kifoya emas. Asosiy vazifa ana shu mushtarakliklar zaminida yotgan ijtimoiy-axloqiy, adabiy-estetik hodisalar sababiyati, umumiyliklarning ildizlarini ochish va tipologik qonuniyatlarining amal qilish, shu qonuniyat ichida shakillangan adabiy hodisalarning xususiyati originallik darajalari, ta'siri va individual mahorat masalalarini yechish kerak bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarishni lozim deb topdik:

- No'shiravon shaxsiyatini yoritish maqsadida turli manbalardan foydalangan holda hikoyat va rivoyatlarni tahlil etish;

- bu obrazning kelib chiqish manbalarini atroflicha yoritish maqsadida ulug' mutafakkirlar ijodiga nazar tashlash va umumiy xulosalar bildirish;

- epik she'riyatda Alisher Navoiy hamda Xoja ijodida No'shiravon obrazi talqinini qiyosiy tahlil etish;

- lirikada No'shiravon obrazining xususiyatlarini va ahamiyatini tahlil etish va h.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning natijalari No'shiravon-adolatli podshoh, No'shiravon obrazining manbalari, epik she'riyatda No'shiravon obrazi talqini, lirikada No'shiravon obrazi talqinlari haqida ancha keng tasavvur beradi.

Tadqiqot natijalari va ilmiy xulosalardan o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidan uslubiy qo'llanmalar yaratishda, seminar mashg'ulotlarida foydalanish mumkin. Shuningdek, u o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'yicha talabalar uchun foydali hisoblanadi.

Tuzilishi va tarkibi. Malakaviy bitiruv ishining tarkibi umumiy tavsif, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 68 sahifani tashkil etadi.

1.1. No‘shiravon – adolatli podshoh. Sharq xalqlari adabiyoti va folklorida juda keng tarqalgan an‘anaviy obrazlardan biri No‘shiravon (Anushervon)dir. Asl ismi Xisrav I bo‘lib, laqabi Anushervondir. “Anushervon” so‘zining ma‘nosi “abadiy ruh egasi”, “o‘lmas ruh egasi” hisoblanadi.²

No‘shiravon (531-589) sosoniy shohlaridan bo‘lib, shon-shavkati bilan shuhrat qozongan edi. Uning otasi Qubod vafot etgandan so‘ng No‘shiravon taxtga o‘tiradi. U Qubod joriy qilgan idora usuli, soliq tizimi hamda harbiy sohalarda jiddiy islohatlar o‘tkazadi, mamlakatni raiyatparvarlik bilan boshqaradi. Qaysi bir kitobni qo‘lga olmaylik , adolat haqida so‘z ketar ekan No‘shiravoni odil ko‘z oldimizda gavdalanadi. Adolat tushunchasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak “adolat” so‘zining mazmunida to‘g‘rilik, haqiqat mujassamdir. Adolat bo‘lgan joy gullab yashnagan, xalq erkin bo‘lgan. Adolat oyoq osti qilingan joylarda esa razolat hukm surib, jamiyat tubanlikka yuz tutgan.

Adolatning ma‘nosi xalqning tengligini ta‘minlashdir. Adl shunday ziynatdirki, u mamlakatga oroyish beradi bir quyoshki, uning nuri bilan zulmat yorug‘likka aylanadi. Haq (pok va oliy) bandalarini adolatga buyurib, “Alloh adolatga, ezgu ishlarga va qarindoshga yaxshilik qilishga buyurar hamda buzuvchilik va yovuz ishlar va zulmdan qaytarur” - degan. Adolat zulm ko‘rganlarning dodiga yetib ahvollariga shafqat nazari bilan qarash demakdir. Ehson esa g‘ussa tig‘idan majruh bo‘lganlarning jarohatiga rohat malhamni surish hisoblanadi.

Hadisda yozilishicha, bir soatlik adolat tarozi pallasida oltmish mukammal hajdan og‘irroq ekan. Negaki, hajning natijasi, ya‘ni foydasi hojilardan o‘zga kishiga bo‘lmaydi, adolat foydasidan esa katta–yu, kichik bahramanddir. Din va davlatning rivoji va shavkati uning barakatidan barqaror bo‘ladi, mulki millat asbobi uning yordami bilan to‘g‘ri bo‘ladi. Adolat savobi chegarasizdir va aql qiyosidan tashqaridir.

² Кайковус. Қобуснома.-Тошкент: Ўқитувчи нашриёти манбаа ижодий уйи, 2006. 205-бет.

Xabarlarda bayon qilinishicha, podshohlardan biri hojilar martabasiga yetishishni hurmat qadami bilan izzat haramini tavof etishni, safo ziyosi bilan mumtoz bo‘lib duo ijobati bilan safarbar bo‘lishni xohladi. Davlat arkonlari bo‘lgan vazirlar va mamlakat ayonlari, amirlari arz bayon qiladilarki: -Ey podshoh haj ado qilishning sharti yo‘lning xavsizligidir, podshohlarning dushmani ko‘p bo‘ladi. Davlatning soyasi xalqning boshidan uzoq bo‘lsa, ularda ovvoralik va sarosimalik kuchayadi. Vazirlar podshohga mamlakatda bir darvesh oltmish marta hajga borganligini va undan haj savobini sotib olishi mumkinligini aytishibdi.

Podshoh darvesh oldiga borib, maqsadini bayon qilibdi. Darvesh: -Ey podshoh hamma hajlarim bahosini to‘lash sen uchun juda ham oson. Podshoh qanaqasiga deb hayron bo‘libdi. Darvesh javob berdi: -Mazlumlarga bir marta adolat ko‘rsatib, bir soat ularning ishi bilan mashg‘ul bo‘lsang va uning savobini menga bersang, ana shunda bu savdoda juda ko‘p foyda ko‘rgan bo‘laman!³

Demak, ma’lum bo‘ladiki, podshoh uchun farz va sunnutlardan so‘ng hech bir toat Alloh bandalarining ishi bilan hayot kechirishdan vojibroq emas ekan.

Adolat Sharq shoirlari qizg‘in va astoydil kuylab kelgan mavzu. Sharq gumanizmning joni va qoni. Xalqparvar shoirlar mamlakat obodligi, el-ulus to‘qligi, osoyishta, tinch hayotini, madaniy-ma’rifiy taraqqiyotini ko‘p hollarda adolatli shoh faoliyatiga bog‘lab tushuntirganlar. Firdavsiy “Shohnoma”siyu Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan tortib, balki undan oldin “Avesto” qo‘shiqlaridan tortib, adolat g‘oyasi va adolatli podshoh obrazini namuna qilib ko‘rsatish adabiyotda uzluksiz davom etib kelgan. Jamshid, Iskandar, Bahrom Go‘r No‘shiravon kabi odil shohlar, Buzrukmehr, Osaf kabi dono, tadbirkor vazirlar xalqning orzu-armonlari timsolida og‘izdan og‘izga, asrdan asrga o‘tib, turli rivoyat, hikoyatlarning yaratilishiga asos bo‘lgan.

Tarix zaminida adabiyot olamiga o‘tgan No‘shiravon yarim tarixiy, yarim afsonaviy qahramon tusini oldi va odillik ramzi sifatida talqin etildi. No‘shiravon

³ Хусайин Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2011. 374-бет.

podshohlik davrida shahar va qishloqlarni obod etish, ko'hna qadriyatlarni tiklashga e'tibor berdi. Hind eposi "Kalila va Dimna" Anushervon topshirig'i bilan pahlaviy tiliga tarjima qilindi, "Avesto" qayta ko'chirildi, uning davrida zardushtiylik rivojlandi, o'zaro urushlar uzul-kesil barham topdi.

No'shiravon "Adolat sohibi" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan podshoh. Bu unvon unga boshqa podshohlarga qaraganda adolatparvar, xalqparvar va boshqa insoniy fazilatlari bilan ajralganligi uchun emas, balki Mazdak rahbarligidagi qo'zg'olonni qonli ravishda bostirganligi uchun Eronning siyosiy hayotida muhim mavqega ega bo'lgan zardushtiy ruhoniylar rahbarlari tomonidan berilgan.⁴

Abduqodir Hayitmetov No'shiravon obrazi haqida quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tadi: "Feruzdan so'ng podshoh bo'lgan No'shiravon ham o'z nomi bilan «No'shiravoni odil» bo'lgan va Ardasher Bobokon degan podshohning yo'lini tutib, uning vasiyatnomalarini mutola qilib, ul dastur bila amal qilurg'a murtakib bo'ldi, ammo adolat va shavqat qonunini dag'i andin ortiq tuzudi, adl jo'yboridin mulk bo'stonig'a farog'at ashjari shodob bo'ldi va insof tartibidin, ammiyot ashjoridin farog'at ochilur erdi va osoyish asmori yetildi".⁵

No'shiravon kabi podshohlar haqidagi bu xil gaplarni tarixiy haqiqat bilan solishtirib ko'rganimizda, ularning odilligi, albatta, juda nisbiy bo'lib chiqadi. Masalan, No'shiravon yirik yer egalariga qarshi Mazdak rahbarligida ko'tarilgan mashhur qurolli qo'zg'olon yuz bergan sharoitda otasi Qubodning o'rniga podshoh sifatida taxtga ko'tarilgan bo'lib, u bu qo'zg'olonni qonga botirishga katta rol o'ynagan, shu bilan birga bu kuchli xalq harakatida o'ziga tanbeh olib o'z mavqeini mustahkamlash niyatida jamiyatning ayrim tabaqalariga, xususan, zardusht ruhoniylariga harbiy xizmat va davlat xizmatini bajaruvchilarga bir qancha yengilliklar bergan va buning evaziga shu tabaqalarning vakillari uni "odil" deb atay boshlagan.⁶

⁴ Oz-oz o'rganib dono bo'lur. –Toshkent: Sharq, 2006. 153- bet.

⁵ Алишер Навоий. Танланган асарлар. Тарихи мулки аҷам. 14 – том. –Тошкент: Фан, 2000. 241 – бет.

⁶ Хайтметов А. Тарихи мулки аҷам асари ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти, 1960, 1-сон. 21-22-бетлар.

Bizgacha yetib kelgan manbalarda No'shiravonning dastlab juda zolim sitamkor bo'lganligi haqidagi xalq og'zaki ijodidagi turli hikoyat va rivoyatlar yuqoridagi fikrlarni haqiqatga ancha yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Masalan, "Oz-oz o'rganib dono bo'lur" kitobida keltirilgan "Boyqushlar suhbat" hikoyatida quyidagi voqea asos qilib olinadi: Qadimgi Eron shohlaridan Anushervon yoshlik paytlarida odil emas edi, zulmga jabr-u jafoga yo'l qo'yardi. Bir kuni vaziri mashhur donishmand Buzrugmehr bilan sahroda ketayotganida bir yerda bir qancha boyqushlarning ikki tomoniga bo'linib saf tortib, turganlarini ko'rishdi. O'rtadan ikki boyqush bir-biri bilan bahslashib, munozara qilib turgan edilar Anushervon bu holdan hayratga tushdi va vazirdan so'radi:

-Sizni komil donishmand, hayvonlar kayfiyatidan ham xabardor olim, deb bilaman. Aytingchi, bu qushlar nega ikk tomonda saf tortib turadilar? O'rtadagi ikki boyqush nima haqida so'zlashadilar?

Buzrugmehr javob berdi:

-Ikki tomon bir-biriga quda bo'lmoqchi, o'rtadagi bahslashib turgan ikki boyqush biri kuyovning biri kelinning otasidir. Qizning otasi: qizimning qalini uchun qirqta xaroba joyni berishingiz kerak, agar so'raganimni qabul qilmasangiz, og'lingizga qizimni bermayman, - deydi. Kuyovning otasi: men, albatta, qizingizga qalin berishdan bosh tortmayman. Hozircha shoh doimo aysh-ishrattadir. Mamlakatning holidan xabarsiz, kambag'al bechoralarning ahvoliga, dod-faryodiga quloq solmaydi, zolimlarning zulmini daf qilmaydi, odil podshoh emas. Agar shu ahvolda ketaversa, bu yurt tez orada xarobazorga aylanadi. U vaqtda sizga qirqta emas, saksonta vayronani qaliniga beraman, bir oz sabr qiling", - deydi. Kuyov va kelinning otalari ana shularni so'zlashib turibdilar.

Anushervon vazirining bu gaplarini eshitib juda ta'sirlandi. Saroyga qaytib adolat va insofni shunday mahkam bunyod qildiki, xalq uni "Anushervoni odil" deb ataydigan bo'ldi. Yoki:

Anushervon aytadi:

— Bir ibratli voqea mening adolatli bo'lishimga sababchi bo'ldi. Yigitlik vaqtimda bir kun ovga chiqib, otimni har tomonga choptirar edim. Piyoda yurgan bir kishi tosh otib, Sir itning oyog'ini sindirdi. U kishi bir necha qadam bosar-bosmas mening otim tepib, uning ikki oyog'ini sindirdi. Keyin otim bir xarsang toshga qoqilib, ikki oyog'ini sindirdi. Men bu voqeani ko'rgach, o'z o'zimga: “Ko'rdingmi, ular nima qildilar va nimani ko'rdilar? Har kim yaramas ishni qilsa, o'zi istamagan ishni ko'radi”, — dedim. Shu voqeadan ibrat oldim.

Q i t' a:

Xalqqa qilgil lutf ila dildorlik,
Tark etib zo'rlikni, ayla zorlik,
Kim nima eksa, o'rar ul ekkanin,
Qil o'zingga pesha nikukorlik.

Yuqoridagi hikoyatlarda Anushervonni adolat yo'liga boshlovchi voqealar sababi aks ettirilgan. Shunga o'xshash hikoyatlarni Muhammad Avfiyning “Nodir hikoyatlar” asridagi «Mo'yindo'z va No'shiravon» deb nomlanuvchi hikoyatda ham kuzatish mumkin. Ammo shunisi ham aniqki, har bir shoir o'z davrining talabidan kelib chiqib, masalaga yondashadi, o'z kuzatishlari, e'tiqodi, ijtimoiy qarashlari taqozosiga ko'ra fikr-mulohaza bayon etadi, adolat va odil hukmdor masalasini hal qiladi.

No'shiravon haqida ijod etilgan hikoyatlar qayta-qayta ishlanib, tildan tilga, kitobdan kitobga o'tib odillik ramzi sifatida talqin etildi. Sharqning ko'pdan ko'p adiblari uni adolat timsoli sifatida zikr qildi.

1.2. No'shiravon obrazining manbalari. Sharq olimlari, ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlarda o'z ifodasini topib kelayotgan ahamiyatli jihatdir. Jumladan, mashhur hind masali “Kalila va Dimna”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Nosir Hisravning “Saodatnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Mahmud Koshg'ariyning “Devoni lug'atit turk”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa'diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo'ston”, Muhammad Avfiyning “Nodir hikoyalar”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Vaqfiya”,

Poshoxo‘janing “Miftoh ul-adl” kabi asarlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan manbalardir.

O‘rta Osiyo klassik shoirlari (Abulqosim Firdavsiy, Rudakiy, Nosir Xisrav, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar) o‘zlarining bebaho badiiy asarlarida ajoyib pedagogik fikrlarni, jamiyat hayotiga oid insonparvarlik, halol mehnat kabi axloqiy tushunchalarni ifoda etadilar. Xususan, pedagogik tarbiyaviy ahamiyatga molik fikrlarni rivojlantirishda xalqlar orasidagi do‘stlik, madaniy aloqalar katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Akademik Qori Niyoziy bu do‘stlikning asosiy mohiyatini belgilab deydi: “O‘rta Osiyo xalqlari qadim davrdan boshlab Eron, Hindiston, Xitoy, Sibir, Sharqiy Yevropa va Kavkaz xalqlari bilan iqtisodiy, siyosiy-madaniy tomondan mustahkam aloqada bo‘lganlar. Bunda O‘rta Osiyoda, mahalliy xalq va qo‘shni xalqning madaniy sohasidagi muvaffaqiyatlari bir-biri bilan chatishib ketadi va sintezlashtiriladi. O‘rta Osiyo xalqlari o‘z madaniyatini yaratib, bu qo‘shni xalqlar madaniyatini o‘rganib va uning eng yaxshi xususiyatlarini ijodiy ishlab chiqib, jahon madaniyatini taraqqiy ettirib va boyitib, ilgoriga qarab qadam tashladilar”.⁷

O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek va tojik xalqlari orasidagi qadimiy do‘stlik bu xalqlarning taraqqiyotiga zamin hozirladi. O‘zbek adabiyoti o‘zining ko‘p asrlik taraqqiyoti tarixida qo‘shni xalqlar adabiyoti bilan zich aloqada bo‘lib, o‘zaro bahramandlik qonuniyati asosida rivojlanib keldi.

Aslini olganda, turkiy tildagi adabiyot umummusulmon adabiyotining bir qismi. Ma’lumki, musulmon dunyosidagi ilm-fan, madaniyat asosan uch tilda yaratilgan. Buning biri arab tili, ikkinchisi fors tili va uchunchisi turkiy tildir. Arab tili “Qur’on” va hadislar tili sifatida diniy adabiyotlar, diniy ilm, shariat qonunlariga oid asarlarda, shuningdek, tib, falsafa, riyoziyot va boshqa fan

⁷ Muhiddinov M. O‘zbek nasri tarixida Navoiyning mavqei. O‘quv uslubiy qo‘llanma (majmua). Samarqand, 2013. 25 – bet.

sohalarida keng qo'llanilgan. Millati arab bo'lmagan ko'p olimlar, ilm-ma'rifat arboblari ham arab tilida asarlar yaratgan.

IX-X asrlarga kelib fors tili arab tili bilan raqobat qila boshladi. Ayniqsa, she'riyatda bu til shuhrat qozonib, olamga mashhur badiiy obidalarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Tarixiy, ilmiy, falsafiy asarlarning ko'p qismi ham fors tilda yozilgandir. Turkiy tildagi adabiyot arab va fors tilidagi yaratilgan adabiyot bilan birga rivojlanib adabiy an'analar, janrlar, g'oya va obrazlarda mushtaraklik kasb etdi. O'zbek adabiyoti tarixan, ayniqsa, fors-tojik adabiyoti bilan uzviy aloqada inkishof topdi.

Sharq xalqlarining badiiy ijodi xilma-xil, ajoyib afsonaviy va tarixiy dostonlarga, masal va rivoyatlarga boy bo'lib, mavzu jihatdan bir-birlariga chambarchas bog'langan.

Ma'lumki, hikoyat Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biridir. Hikoyat – yozma adabiyot bilan og'zaki ijodiyotni bir-biriga bog'lagan muhim omil. Xalq hikoyatlari bilan yozma hikoyatlar o'zaro chunon yaqinki, ularni qat'iy chegaralash ko'pincha amri maholdir. Chunki hikoyat xalq rivoyatidan kitobga, kitobdan xalq hikoyachiligiga o'tib borgan. Shu bilan birga, ma'lum bir xalqning adabiyoti (yoki folklori) zaminida vujudga kelgan hikoyat ikkinchi bir xalq tomonidan qayta ishlanib, o'zlashib, uning adabiyoti hisobiga qo'shib ketar edi. Binobarin, sujet va kompozitsiya, obrazlar sistemasi jihatdan bir-biriga monand hikoyalar, bir tomondan, ijtimoiy hayot, tarixiy sharoitning o'xshashligi natijasida bir-biridan mustasno holatda vujudga kelsa, ikkinchi tomondan, adabiy aloqalarning mahsuli sifatida paydo bo'ladi.

Yaqin va O'rta Sharq xalqlari hikoyachiligida bir qator an'anaviy obrazlar bor. Hotami Toy, Talhaq, Afandi va boshqalar shular jumlasidandir. Bu qahramonlar ma'lum bir xalqning, uning badiiy ijodiyotining qahramoni sifatida vujudga keldi. Masalan, Hotami Toy arab zaminida, Talhaq –forsiy, Afandi – turkiy zaminida. Ammo bu qahramonlar o'z zamini bilan chegaralanib qolmay,

boshqa o'lkalarga ham manzur bo'lib, ularning o'z qahramonlari qatoridan o'rin oldi, yangi-yangi hikoyatlarning paydo bo'lishiga turtki sifatida xizmat qildi.

Sharq xalqlari kitobiy adabiyoti va folklorida juda keng tarqalgan an'anaviy obrazlardan biri No'shiravon adolat timsoli sifatida bizgacha tarixiy va adabiy manbaalar orqali yetib kelgan. Asosan ushbu manbalardagi hikoyat, rivoyat va tarixiy afsonalarda No'shiravon obrazining ham ijobiy, ham salbiy jihatlari yoritib berilgan.

No'shiravon obrazi dastlab fors-tojik shoiri va mutaffakkiri Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida tilga olinadi. Abulqosim Firdavsiy Eron, Yunon va Hindiston olimlarining turli sohadagi asarlaridan yaxshi xabardor bo'lgan. O'z davrining qomusiy olimi bo'lib yetishgani uchun ham uni hakim deb ulug'lashgan. Shohnomanavislik uzoq tarixga ega. Ma'lumki, samoniylar davrida Eron va Turon xalqlarining nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki madaniy-ma'naviy hayotida ham bir ko'tarilish bo'lgan, milliy iftixor tuyg'usi kuchayib o'zining kimligi, qadr-qimmatini anglash va uni boshqalarga ham tan oldirish uchun ular Eron va Turonning shonli voqealariga, boy tarixini tiklash, qahramonliklariga to'la o'tmishini qalamga olishga intiladilar. Bundan maqsad milliy davlatchiligini oyoqqa qo'yish uchun arablarga qarshi kurashda mafkuraviy qurol sifatida foydalanish, forsiy va turkiy xalqlarning shon-shavkati ulardan kam emasligi, bilaks ustunligini ko'rsatish edi. Shu niyatda qadimiy afsona va rivoyatlar, buyuk shohlar va bahodirlar haqidagi qissa va jangnomalar, sosoniy hukmdorligining solnomalari va ma'muriy hujjatlari asosida, "Xvataynamak" ("Xudoynoma" – Hukumdorlar haqida kitob) to'plami yaratilgan. U qayta ishlanib, X asrda "Shohnoma" nomi bilan yuritila boshlagan. Shu tariqa 9-10 ta "Shohnoma" yaratilgani tarixdan ma'lum.⁸

IX-X asrlarda ularning ko'pi arab tiliga tarjima qilingan. Lekin ularning birortasi bizgacha yetib kelmagan. Jumladan, yirik amaldor va lashkarboshi Abu Mansur Muhammad Abdurazzoq Tusiyning topshirig'iga ko'ra, 957-yili Abu

⁸ Ochilov E. Barhayot siymolar. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. 22-bet.

Mansur al-Ma'muriy tomonidan nasriy "Shohnomai Mansur" yaratildi. Bu asarning faqat bosh qismigina bizga yetib kelgan. Taxminan 963-yili Abulmuayyat Balxiy ham nasriy "Shohnoma" yaratdi. U bilan ayni bir vaqtda Ma'sud Marvaziy va Abu Ali Balxiylar "Shohnoma"sida tilga olinmagan Nariman, Som, Oguj, Vahodan, Kaykishan nomlari bilan bog'liq lavhalar mavjud bo'lgan. Marvaziy o'z "Shohnoma"sini birinchi odam va birinchi podshoh Kayumarsdan boshlab, samoniylar davlatining oxirgi vakili tasviri bilan tugallaydi. Bu borada to'planga katta tajriba va yig'ilgan salmoqli material asosida samoniy hukmdorlar buyrug'i va homiyligida Abu Mansur Muhammad binni Ahmad Daqiqiy nazmiy "Shohnoma"ga qo'l urdi. Biroq u Zardusht, Gushtasp va Arjasp dostonlarini jami ming bayt yozganda fojiali ravishda o'ldiriladi.

Bolalikdan qadimiy afsona va rivoyatlar, qahramonlik qissalari va jangnomalarni jon qulog'i bilan tinglab ulg'aygan, vatanga va uning buyuk tarixiga muhabbat ruhida tarbiyalangan, keyinchalik o'zi han xalq ichida yurib, ularni yozib olgan, fors va pahlaviy tillaridagi ko'plab tarixiy kitoblarni mutolaa qilgan, shu tariqa boy og'zaki va yozma materiallar yig'gan Firdavsiy bir qadrdon do'stining da'vati va pahlaviy tilidagi qadimiy shohlar tarixi jamlangan kitobni sovg'a qilishi hamda Tus hokimi Mansur binni Muhammadning moddiy qo'llab-quvvatlashi bilan salafi chala qoldirgan "Shohnoma"ni davom ettiradi.

Eron va Turon xalqlarining qariyb to'rt ming yillik tarixi yuksak mahorat bilan badiiy talqin qilingan 60 ming baytdan iborat "Shohnoma" ustida Firdavsiy 30 yil ter to'kadi. Tadqiqotchilar asarni uch qismga bo'ladilar; birinchi bo'limda shoir eng qadimiy afsona va rivoyatlarni qayta ishlab nazm ipiga tergan bo'lsa, ikkinchi bo'limda xalq qahramonlari haqidagi qissa va jangnomalarga yangi va mangu hayot baxsh etadi, uchinchi bo'limda shohlar hayotini qalamga oladi. "Shohnoma" eng qadimgi davrlardan boshlanib, sosoniylar shohi Yazdigard III davrida arablarning Eronga bostirib kirishi bilan yakunlanadi. "Shohnoma" hajmi, mavzu ko'lami, obrazlar olami, qahramonlarning ko'p va xilma-xilligi, g'oyaviy motivlari va ko'tarilgan masalalar jihatidan jahon adabiyotidagi eng katta epik

asardir. Yuzdan ortiq katta-kichik dostonlardan tashkil topgan bu asarda mingdan ziyod turli darajadagi personajlar ishtirok etadi.

“Shohnoma” garchi shohlar kitobi deb atalib, 50 podsholikdan iborat to‘rtida sulolaning tarixi unda qat’iy tartib asosida yoritilgan bo‘lsa-da, barcha kurash va qahramonliklarni xalq ichidan chiqqan bahodirlar amalga oshiradilar. Asarda vatan va xalq yo‘lidan jonini tikkan yuzlab fidoiy qahramonlar obrazi yaratilgan. Podshohlar bahonasida xalq, uning tarixi, qahramonliklari ulug‘langan. Ayni jihatdan “Shohnoma” xalq zakovati va jasoratiga qo‘yilgan o‘ziga xos nazmiy haykaldir.

“Shohnoma”ning asosiy g‘oyasi – vatanni ulug‘lash, xalq qudrati va zakovatini ko‘z-ko‘z qilish, millat farzandlarini vasf etish va shu orqali ularni birlikka, markazlashgan davlat qurishga chaqirish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va tinchliksevarlikni madh etish, ezgulik, oliyjanoblik, halollik, mardlik mehnatni tarannum etib, qonli urushlar, yovuzlik, jabru zulm, adolatsizlik, munofiqlikni qoralashdan iborat.

“Shohnoma”dagi Rustam, Suhrob, Siyovush, Bijan, Zoli Zar, Rudoba, Gudarz, Gev, Hojir, Gurdafarid, Humoy, Manija singari qahramonlar yer yuzasida adolat tantanasi uchun kurashadilar. Abulqosim Firdavsiy xalq uchun qahramonlik ko‘rsatgan obrazlar qatorida No‘shiravoni odilni ham tilga oladi. Bu obraz “Shohnoma”da keng to‘laligicha yoritilmagan bo‘lsa-da, muallifning mahorati, ijodiy izlanishlari samarasi tufayli keyingi asarlar uchun dasturulamal vazifasini bajaradi.

“Shohnoma” asrida No‘shiravon obrazi adolatli podshoh, xalqini yovuz kishilardan saqlovchi hukmdor, donishmand kishi hamda davlat ishlari bilan birgalikda san’at va adabiyotga kuchli mehr bilan qarovchi inson sifatida gavdalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Firdavsiy “Shohnoma”da podshohlarni o‘z raiyati holidan ogoh bo‘lishga, unga mehribonlik ko‘rsatishga chaqiradi, xalqni ortiqcha soliqlardan ozod etish, zolimlar zulmidan himoya etish lozimligini uqtiradi.

“Shohnoma”da No‘shiravonning dastlabki shohlik davridan boshlab ilmga, adabiyot, san‘at sohasiga katta qiziqish bilan e‘tibor berganligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarda aytilishicha, bundan 1800 yillar ilgari yartilgan “Kalila va Dimna” kitobining ta‘rifini eshitib Baruziya degan tabibni yuborib, oldiradi va pahlaviy (qadimgi eron) tiliga tarjima qildirganligi ham aytib o‘tiladi. Shundan ham bilib olishimiz mumkinki, No‘shiravon davlat boshqaruvida adabiy, madaniy sohalarga juda katta e‘tibor bergan.

Badiiy yuksakligi, beqiyos darajada xalqchilligi tufayli va xalq orzu – armonlarini kuylagani uchun ham mana ming yildan buyon ”Shohnoma” o‘quvchilar qalbini zabt etib, shuhrat cho‘qqisidan tushmay kelmoqda.

Inson tarbiyasi, kamolotini hayotning tub mohiyati, jamiyatning muhim vazifasi deb bilgan Sharq xalqlari adabiyotining asosini pand-nasihat tashkil etadi. Bu adabiyot, ta‘bir joiz bo‘lsa, pand-nasihat vositasida tiklangan hikmat qasriga o‘xshaydi.

Sharq so‘z san‘atining tamal toshini qo‘ygan ham, uning beshigini tebratgan ham aynan pand-nasihat hisoblanadi. Bu hol mazkur xalqlarning tabiati, o‘ziga xosligidan kelib chiqqan, albatta.

“Kalila va Dimna”, “To‘tinoma” kabi xalq kitoblari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Sa‘diy Sheroziyning “Guluston” va “Bo‘ston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” singari pandnoma asarlari ana shu an‘ananing aks sadolaridir. Ular qatori “Qobusnoma”ning ham alohida o‘rni bor.

Fors tilidagi ilk nasriy asar “Qobusnoma”ni XI asrning 82-83-yillarida G‘arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar (1021-1098) o‘z o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlab yaratadi va o‘sha davr an‘anasiga ko‘ra uni bobosi shoh Shams ul-maoliy Qobus sharafiga “Qobusnoma” deb ataydi. Bu durdona asarda Ollohni tanish-u payg‘ambarlarning yaratilishidan tortib ilm-u hunar egallash yo‘llari va foydalarigacha, ota-ona haqini ado etishdan farzand tarbiyasigacha, dehqonchilik va bozor qilishdan to vazir-u podshoh bo‘lishgacha hayotda

insonning umrguzoronligi uchun zarur bo'lgan barcha masalalar muhtasir qamrab olingan. Shu bilan birgalikda No'shiravoni odil obrazining bizgacha yetib kelgan muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

“Qobusnoma”da Anushervoni Odil haqidagi go'zal rivoyat keltirilib, uning pandlaridan namunalar beriladi. Rivoyatda aytilishicha, Anushervonning qabr toshiga quyidagi so'zlar yozilgan: “Men hayotligimda va podshohligimda hammaning hojatini chiqarar, biror kishini huzurimdan umidsiz qaytarib yubormas edim. Endi esa tuproq ostida ojiz yotibman, lekin xohlaymanki, mening ziyoratimga kelganlar biror-bir manfaat ko'rmay qaytib ketmasinlar tirikligimda odamlar mendan qanday bahramand bo'lgan bo'lsalar, endi vasiyatlarimdan ham shunday foyda ko'rsinlar, deb mo'ror toshiga quyidagi nasihatlarini yozdirdi: mening bu pandlarim ziyoratchilar qadam ranjining mukofoti bo'lsin”.⁹

Ulug' zotlar nafaqat tirikligida, balki o'lganidan keyin ham ibratli hayoti, hikmatli so'zi bilan insoniyatga xizmat qilaveradi. Anushervonning hayoti va faoliyoti buning isbotidir. Bu rivoyat to yer yuzida hayot mavjud ekan odamlarni ezgu ishlar qilishga, o'zidan yaxshi nom qoldirishga da'vat aylashda davom etaveradi. Uning buyukligi va umrboqiyliigi ham shunda.

Kitobda Anushervoni odilning 33 ta pandi keltirilgan: bu nasihatlar uzoq umr ko'rgan va katta hayotiy tajriba sohib bo'lgan donishmand bir insonning qalb qo'ri, aql nuriga yo'g'rilgan go'zal va sermazmun hikmatlaridir. Mana Anushervoni odil nima deydi:

— Agar har kishini turmush ustodi dono etmasa, hech bir dono unga so'z o'rgatish uchun ranj chekmasin, ranji zol bo'lur.

— Har kishining bilimi bo'lsa-yu, ammo unga loyiq aql bo'lmasa, bu bilim unga zarar yetkazgusidir.

— Agar xalq sening so'zing bila ish qilmog'in tilasang, sen o'z so'zung bila ish qilg'il.

⁹ Kaykovus. Qobusnoma. —Toshkent: O'qituvchi, 2006. 56-bet.

— Agar xalq sening haqingda yaxshi soʻz aytarin tilasang, xalq haqida yaxshi soʻz aytgʻil.¹⁰

Bu nasihatlar bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan, ularga zamondoshlarimizda ham ehtiyoj mavjud. Kitobda Anushirvonning adolatli faoliyotdan xabar beruvchi turl hikoyatlar keltirilgan.

Noʻshiravon obrazining manbalaridan yana biri Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulkning 1091-yilda yozilgan “Siyosatnoma” yoki “Siyar ul-mulk” asari hisoblanadi. Muallif oʻz asarini 39 bobdan iborat qilib yaratgan. Soʻngra asar shohga manzur boʻlgani uchun Nizomulmulk asarini qayta ishlab, uni yangi bob va qismlar bilan boyitadi. “Siyosatnoma” asari yaratilgan davrdan boshlab olimlar, tarixchilar, adiblar, eng asosiysi, shoh-u hokimlar diqqatini oʻziga tortib keladi. Bu asarni sultonlar va boshqa mansabdorlar koʻchirtirib olib, oʻz faoliyatlarida foydalanganlar. “Siyosatnoma” Sharq madaniyatini, saljuqiylar tarixi va siyosiy hayotini oʻrganishda eng ishonchli manba boʻlishi bilan birga fors adabiyotining dastlabki badiiy asarlaridan sanaladi.

Asarning tarixiy, siyosiy va badiiy ahamiyati shundaki, u saljuqiylar hukmronligiga oid muhim manba boʻlib, bu silsila shohlar uchun davlatni boshqarishda bir dastur tarzida yaratilgan. Asar adabiy manba sifatida juda qimmatlidir. Shu sababli asarga Nizomulmulk shaxsiyatiga Alisher Navoiy, “Dasturul-mulk” muallifi Samandar Termiziy, “Osor al-bilod” muallifi Abu Yahyo Zakariyo Muhammad al Qazvinij hamda Ibn Isfandiya, Ibn Bibi, Ibn Tiqtak, Xoja Halifa va boshqa koʻplab ulugʻ alloma-yu davlat arboblari gʻoyat yuksak baho berganlar. Masalan, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Xoja Komoliddin Husayn nomli shoir haqida gapirib berib shunday yozadi: Xoja Nizomulmulkning oʻgʻlidir. Otasining taayun va ishtihgori bugungi Nizomulmulkdir ortiqroq boʻlmasa, oʻtsuk ham emas. Eʼtibor yuzidin aning bila teng bor edi. Ammo mansab yuzidin ortti...¹¹

¹⁰ Oʻsha asar, 57-bet.

¹¹ Алишер Навоий. Танланган асарлар. 3-том. —Тошкент: Ўзбекистон, 1948. 111-бет.

Navoiyning gaplari shuni ko'rsatadiki, Hirot madaniy muhiti uchun saljuqiylar vaziri taniqli shaxs bo'lgan. Shu boisdan ham boshqani unga qiyoslab, nisbat berib ta'riflayapdi.

Nizomulmulk fikricha, adolat va sahovat xayr-sadaqadan nochor, noiloj kishilarga madad berishdan, beva-bechoralar, mayib-nogironlarga xazinadan nafaqa ajratishda va insonlarning huquqlariga rioya qilishdan iborat. Nizomulmulk har bir g'oyani isbotlash uchun muayyan tarixiy va afsonaviy shaxslar, sulolalar va saltanatlar tarixidan, o'tmishidan foydalanib, tegishli voqealardan misollar keltiradi. Davlat boshqaruvi va hukumatchilikka u 875-999-yillarda hukm surgan samoniy hamda g'aznaviy sulton va shohlarni namuna qilib ko'rsatadi. Bu sulolaning nomoyondalarini nihoyatda ulug'lab, ba'zan ularga xos bo'lgan fazilat va yaxshi xislatlarni, xulq-atvorlarni e'zozlab, zamona shohlarida ham shunday sifatlarni ko'rmoqchi bo'ladi va shu yo'l bilan ularga davlatni boshqarish borasida samimiy maslahatlar beradi.

Asarning badiiy qimmatini shundaki, uning muollifi o'z fikrlarini turli hikoyalar vositasida isbotlab, mustahkamlab beradi. Qarashlari o'quvchi ongiga yetib borishi, diqqatini jalb etishi uchun turli tarixiy shaxslar, har xil qahramonlar va ularning hayoti bilan bog'liq hikoyatlarni keltiradi. Ushbu hikoyatlarning ko'pchiligida No'shiravon shaxsiyatiga, faoliyatiga oid qiziqarli ma'lumotlarni badiiylashtirilganini ko'rish mumkin. Masalan, asarning beshinchi faslida No'shiravon bilan bo'liq bir hikoyat keltiriladi. Unda hikoya qilinishicha Qubod farmondorlik qilib, dunyodan o'tgach, o'g'li No'shiravoni odil taxtga o'tiradi, o'n sakkizga kirib podshohlik qila boshlaydi va yoshligidan ta'bida adolat manzil topganligidan yomonga yomonlik, yaxshilarga yaxshilik qilardi. U hamisha aytardiki: otam zaif tabiatli va salim edi. Yolg'onga tez aldanardi. Viloyatlar xarob bo'lib, xazina bo'shab, boyliklar yo'qoldi va yomonlarga zulm uning bo'yniga tushardi. Bir marta Mazdakning hiyla-yu, nayrangiga tez ishondi",¹²- deydi.

¹² Низомулмулк. Сиёсатнома. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. 37-бет.

Muallif bu hikoyatda No‘shiravonni tarixiy nuqtayi nazardan tilga olganligini yaqqol ko‘rish mumkin. Ushbu hikoyat hikoya ichida hikoya tarzida davom etadi.

Asarda xuddi shu faslda Noshiravon bilan bog‘liq hikoyat keltiriladi. Bu hikoyat ham undan oldingi hikoyatning davomi sifatida o‘rin olgan.

Muallif asarning o‘ttiz yettinchi faslini “Qadrlashga loyiq qullar va xizmatkorlar haqida” deb nomlagan. Xuddi shu faslda quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan: “Xizmatkorlardan birovi yaxshi va manzur ish qilsa, uni o‘z vaqtida siylab, ishining natijasiga yarasha rag‘batlantirish kerak”,¹³-deb aytib o‘tadi va fasl yakunida shunday fikrlarni ham uchratamiz: Somoniylarda shunday bir odat bo‘lgan ekan, birov oldilarida yaxshi so‘z yoki yoqimli hunar ko‘rsatsa va bularga yoqib qolsa, shohlari “Omon bo‘l”, –der ekan. Shunda xazinachi ming dirham olib kelib, shu kishiga berar ekan. “Xusraviy shohlar, xususan, No‘shiravoni odil adl-u muruvvatda va himmatda boshqa podshohlardan yuqori turgan”,¹⁴- degan so‘zlar bilan yakunlaydi. So‘ng No‘shiravonning muruvvat va himmatda beqiyos bo‘lganligini isbotlovchi bir hikoyat keltiradi.

Bir kuni No‘shiravoni odil o‘z xoslari bilan ovga boradi. Bir qishloq chekkasida to‘qsonga kirgan bir cholni ko‘rib qoladi. Chol yerga yong‘oq ekardi, No‘shiravon bundan ajablanadi, chunki bir yong‘oq nihol hosilga kirishi uchun yigirma yil kerak bo‘ladi. Choldan so‘raydi:

- Ey chol, yong‘oq ekayapsanmi?
- Ha, xo‘jayin, -deydi chol
- Hosildan tatish uchun qancha yashashining kerak?
- Boshqalar ekanini biz yedik, biz ekkanimizni boshqalar yeydi.

No‘shiravonga bu javob yoqib qolib, aytadi:

- Omon bo‘l! Cholga ming dinor ber, -deb xazinachiga buyurdi.

Chol dedi:

¹³ O‘sha asar, 37-bet.

¹⁴ O‘sha asar, 122-bet.

— Ey xudovandim, mendan boshqa hech kim yong‘oqdan bunchalik tez meva yemagan.

— Qanday qilib?- so‘raydi shoh.

— Agarda men yong‘oq ekmaganimda, siz bu yerdan o‘tib, meni so‘roq qilmaganingizda, men bechora javob bermaganimda, bu ming dinor qayerdan kelardi?

No‘shiravon xitob qiladi:

— Omon bo‘l va yana omon bo‘l!

Xazinachi ikki marotaba “Omon bo‘l” so‘zini eshitib, cholga ikki ming dinor beradi.¹⁵

Xuddi shu hikoyatni buyuk shayxlardan Farididdin Attorning “Ilohiynoma” asarida “Ko‘karmasdan burun meva bergan daraxt” nomli hikoyatda uchratish mumkin. “Ilohiynoma”da ham hikoyatning mazmuni yuqoridagi hikoyat bilan bir xil.

Asarning e‘tiborga loyiq joyi shundaki, Nizomulmulk ham mazdakiylar isyoni va bu isyonning No‘shiravon tomonidan bostirilishi haqidagi voqeani qalamga olgan. Firdavsiy o‘z asari “Shohnoma”da bu voqeani ijobiy boholagan bo‘lsa, Nizomulmulk aksincha salbiy baho beradi. Firdavsiy Mazdakni donishmand, xalqni dardi bilan yashovchi qahramon sifatida tilga olgan, Nizomulmulk esa uni yolg‘onchi, o‘z dinini zo‘rlilik bilan odamlar orasiga tarqatish niyatida bo‘lgan qallob kishi sifatida gavdalantiradi. Lekin Mazdak o‘z niyatiga yeta olmaydi bunga No‘shiravon to‘sqinlik ko‘rsatadi. No‘shiravon o‘zining donishmandligi, aql-u farosati bilan odamlar ichonchini oqlaydi va Mazdakni fosh qiladi so‘ng adolat bilan xalqni boshqarganligi aytiladi.

Asardagi keyingi ma‘lumotlardan biri qirq to‘qqizinchi fasl, ya‘ni “Shikoyatga kelganlar javobini berish va ularning ishlarini insof bilan hal qilish haqida” nomli bo‘limidagi bir hikoyat hisoblanadi. Bu hikoyatda No‘shiravon

¹⁵ O‘sha asar, 123-bet.

podshohlik davrida huzuriga shikoyat arz bilan kelgan mazlumlarni arzini eshitib, adolat bilan ish tutganligi hikoya qilinadi.

Nizomulmulk o‘z kitobi vositasida quruq pand-nasihatni ko‘rsatib berishni maqsad qilib qo‘ymaydi. U turli davlatlarning hukmdorlari, avlodlar tajribasiga, jumladan, o‘z shaxsiy tajribasidan bizga maroqli hikoya qiladi. Shu jihatdan ham, garchi asar asosan eng murakkab va siyosatdan so‘zlasa-da, g‘oyat qiziqarli maroq bilan o‘qiladi.

No‘shiravon obrazining keyingi manbalaridan biri Muhammad Avfiyning “Javome-ul hikoyat va lavome ul-rivoyat” (“Hikoyatlar to‘plami va rivoyatlar ziyosi”) asaridagi hikoyat va rivoyatlar orqali yetib kelgan. Muhammad Avfiy bu asarini 1233-yilda yozib tugatadi. Asarni yaratishda fors- tojik va arab tilidagi yuzga yaqin manbalardan foydalangan, hind adabiyotidan bahramand bo‘lgan.

“Javome ul-hikoyat” to‘rt qismdan iborat. Boblar bir necha hikoyatni o‘z ichiga oladi. Asar ikki mingdan ziyod hikoyatni o‘z ichiga olgan. Birinchi qism “Dar ma’rifati ofaritgari taolo va tavorix va maosiri mulk” (“Eng yuksak va muqaddas yaratuvchining ma’rifati va payg‘ambarlar va avliyolar zikri va podshohlar tarixi va ularning maqbul ishlari”) deb nomlangan bo‘lib, unda payg‘ambarlar va avliyolarga doir afsona va rivoyatlardan tashqari, Ajam shohlari tarixi, adolati, fazilati, hokimlar, munajjimlar va boshqalar haqida qiziqarli, maroqli hikoyatlar bor. Kitobning ikkinchi qismi “Dar bayoni axloqi hamida va siytari marziyaya” (“Maqtoqli xulqlar va yoqimli xislatlar bayonida”) deb nomlanadi va unda hayo, tavoze, odob, shavqat, saxovat, karam, shijoat, sabr-matonat va boshqalarga doir o‘g‘it beriladi, hikoyatlar bayon etiladi. Uchinchi qism “Dar bayoni axloqi mazmuma” (“Yaramas xulqlar bayoni”) deb nomlanib, unda johillik, hasad, ta’magirlik, baxillik, xasislik, xiyonat xislatlari fosh etiladi. Nihoyat, kitobning to‘rtinchi qismi “Dar bayoni ahvoli sodir va ajoyibi bihir va bilod va taboe hayvonot” (Sodir bo‘lgan ahvol va dengiz va shaharlar ajoyibliklari va hayvonlar tabiati bayonida) deb nomlanadi. Bu qism xilma-xil mavzudagi ajoyib va g‘aroyib hikoyatlarni qamrab olgan.

Yazdijurd, Bahrom, Xisrav Parvez, Anushervon kabi Ajam shohlar, Aflotun, Arastu, Buqrot kabi yunon hakimlari, Iskandar, Hotami Toy va Majnun kabi o‘nlab an’anaviy obrazlar Muhammad Avfiy hikoyatlarining bosh qahramonlaridir. Muhammad Avfiy o‘z asarida No‘shiravon obrazini turli hikoyatlarda turlicha aks ettirgan. Ulardan “Mo‘yindo‘z va No‘shiravon” nomli hikoyatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, hikoyatda Shayx Abul Mavid degan qahramon tilidan payg‘ambarimizning “Odil shohlar onadan odil bo‘lib tug‘uladilar”, - degan hadisi keltiriladi va sharhlanadi. Bu hadisni eshitgan sulton shunday deydi: “Shubhasiz Muhammad a.s o‘zining bu hadisini No‘shiravonning oxirgi hukmronlik yiliga monand qilib aytgan. Zeroki, No‘shiravon o‘z hukmronligining oxirgi davrlarida adolatga moyil ekanligini oshkor qilgan edi. Ammo No‘shiravon o‘zining dastlabki hukmronlik davrida shunday zolim ediki, Ajam shohlari orasida hech kim unchalik sitamkor bo‘la olmagan edi. Uning bunday adolatli bo‘lishiga bir qo‘shnisi sababchi bo‘ldi”, - deb bir voqeani aytib beradi.

Bu hikoyatda hikoya ichida hikoya keltirilgan. Ichki hikoyada No‘shiravonning adolat yo‘liga kirishiga sabab bo‘lgan voqea, ya’ni yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan qo‘shnisi bilan bo‘lib o‘tgan voqea hikoya qilinadi.

Bundan tashqari, Muhammad Avfiyning “Ibratli hikoyatlar” nomi ostida No‘shiravon obrazi aks etgan turli hikoyatlar keltiriladi. Muhammad Avfiy asarida ko‘pincha Anushervon nomi bilan tilga oladi. Asardagi bir hikoyatda Anushervon va uning donishmand vaziri Buzrugmehr o‘rtasidagi voqea keltiriladi. Bu hikoyatda, asosan, Anushervonning dono vazirining qanchalik bilimli ekanligi ko‘rsatib berilgan. Keyingi hikoyatda Anushervonni aqlli, farosatli, har bir gapini o‘ylab, mazmunini tushungan holda gapiruvchi hukmdor sifatida aks ettiradi: Anushervon hukmronligi davrida ikki darvesh uning saroyiga kelibdi va ulardan biri baland tovush bilan “Yovuzlik ko‘rmayin desang, yovuzlik qilma debdi”.

Ikkinchisi:

— Yaxshilik qilgan kishi hamisha yxshilik ko‘rgay!- debdi.

Anushervon amiri bilan birichisiga ming dinor, ikkikchisiga ikki ming dinor berishibdi. Bu holni ko'rgan mulozim va nadimlar podshohdan: "Ikkalasining ham so'zi bir ma'noni ifodalaydi-ku, nega ikki xil mukofot berding?", - deb so'rashibdi.

Anushervon shunday javob beribdi:

— Biri yomonlikni madh etdi, ikkinchisi yaxshilikni. Yaxshilar bilan do'st-u hamsuhbat bo'lishdan yaxshi va yomonlar bilan hamtovoq bo'lishdan yomon ish bormi dunyoda.¹⁶Ko'rinib turganidek, bu hikoyatda Anushervon donishmand hukmdor sifatida aks ettirilgan.

"Javome ul hikoyat" asaridagi keyingi hikoyatda, yuqorida tilga olingan Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida va Farididdin Attorning "Ilohiynoma" asarida uchrovchi Anushervon va keksa bir kishi o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat hikoya qilinadi. Bu hikoyatda keksa kishining ibratli so'zlarini eshitib unga mukofot taqdim etganligi haqida so'z yuritiladi.

Bundan tashqari, asarda Anushervon gunohkor amirning o'rniga uning vazirini jazolaganligi haqidagi voqea tilga olinadi. Demak, bu voqeadan xulosa qilish mumkinki, davlat boshlig'ining to'g'ri yo'l tutishida zulm yoki adolat qilishida vazirlarning xatti-xarakatlari, maslahatlari muhim ahamiyatga ega ekanligini bilish mumkin, ya'ni bu hikoyatda muallif No'shiravon orqali zolim, aqlsiz vazirlarga tanbeh bermoqchi bo'ladi. Bu kitobning tarixiy-adabiy ahamiyati shundan iboratki, avvalo, ba'zi tarixiy shaxslar, voqealar, olim va shoirlar haqida manbalar yo'qolib ketgan va faqat shu kitobgina bir ozgina bo'lsa-da, ma'lumotni bizgacha saqlab qolgan, ikkinchidan Avfiyning sodda betakalluf til bilan yozilgan bu asarni XII – XIII asr prozasining yorqin haykali desa bo'ladi.

Mashhur fors-tojik shoiri, adibi va mutafakkiri Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari ham No'shiravon obrazining bizgacha yetib kelishida mahim manba sifatida xizmat qildi. Sa'diy hayot ilmini chuqur o'rganib, inson fe'lini butun murakkabligi bilan anglab, o'z davrining ko'pni ko'rgan donishmand kishisi bo'lib yetishdi. Fors-tojik adabiyotida

¹⁶ Muhammad Avfiy. Ibrayli rivoyatlar. –Toshkent: O'zbekiston, 2009. 10-bet.

Sa'diyning maqomi juda yuksak, hayotiy tajriba asosida yaratgan "Bo'ston" (1257) va "Guliston" asarlari unga olamshumul shuhrat keltirdi.

"Boston" o'n qismdan iborat bo'lib, uning tarkibi muallif tomonidan mahorat bilan tuzilgan. "Bo'ston" bevosita qaynoq ijtimoiy-siyosiy hayotdan, jonli xalq tilidan suv ichgan oziqlangan va shuning uchun ham jamiyatning hamma tabaqalariga tushunarli bo'lgan.

"Guliston" sakkiz bobdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob-podshohlar siyrati zikrida; ikkinchi bob-darveshlar axloqi zikrida; uchinchi bob-qanoat fazilati zikrida; to'rtinchi bob-sukut saqlashning foydalari zikrida; beshinchi bob-ishq va yoshlik zikrida; oltinchi bob-qarilik va zaiflik zikrida; yettinchi bob-tarbiyat ta'siri zikrida; sakkizinchi bob-suhbat odobi zikrida. "Guliston" – fors-tojik didaktik adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi. U pand-nasihat va odeb-axloq kitobi sifatida shuhrat qozongan...

Umrining ko'p qismini sayohatlarda o'tkazgan, ko'p xalqlar, millat-u elatlar hayotini kuzatgan, turli tabaqa kishilari bilan muloqotda bo'lgan Sa'diy ko'rgan-kechirganlarini, hayotiy tajribasini umumlashtirib, ularni yuksak badiiy shaklda, qisqa-qisqa, ammo g'oyat shirali, ta'sirchan nasriy jumlar va she'riy baytlar bilan ziynatlab, o'ziga xos hikoyatlar to'plamini yaratgan. Asardagi uchta hikoyat No'shiravoni odilga bag'ishlangan. Ular yigirmanchi, o'ttiz birinchi va o'ttiz to'rtinchi hikoyatlardir. Jumladan, yigirmanchi hikoyatda No'shiravoni odilning ovga chiqishi va u yerda tuz bilan bog'liq hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatda No'shiravon obrazi o'z atrofidagi mulozimlarini to'g'ri yo'lga boshlaganligi haqida so'z yuritiladi. Hikoyatda "Tuzni bahosini to'lab olib kel, toki tekinga olish odat qatoriga kirib qishloq xarobalikka yuz tutmasin",- degan jumlar bor. Bu mazmundagi hikoyatni o'zbek adabiyotida Sayfi Saroyi, Navoiy ijodlarida uchratamiz. Sa'diy hikoyati yakunida xulosa sifatida quyidagi qit'a keltiriladi:

Agar bir olim yesa shoh raiyat bog'idin,
Daraxtni ildizdin qullari qo'porg'ay.

Bir ikki tuxumg'a shoh zulmni ravo tutsa,
Necha tovuqni askari sixa urg'aylar.¹⁷

Keyingi o'ttiz birinchi hamda o'ttiz to'rtinchi hikoyatlarda esa No'shiravon bilan birgalikda uni vaziri bo'lgan Buzrugmehrning ham donoligi, ham oqilligi madh etiladi.

“Guliston” asariga ergashib ko'plab asarlar yozilgan lekin ulardan faqat uchta, ya'ni Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”i Majididdin Xavofiyning “Xoriston” i, Habib Qooniyning “Parishon” i shuhrat qozongan.¹⁸

“Bo'ston” asarida ham Sa'diy No'shiravoni odilni pand-nasihatlarini keltiradi. Asarning “Odillig-u tadbir-u andesha zikrida” deb nomlangan birinchi bobida No'shiravon tilida Xurmuzga nasihatlarini keltiriladi:

No'shiravon dunyodan yumar ekan ko'z,
Hurmuz o'g'lin chorlab demish shunday so'z.
Notovonlarni yod ayla muttasil,
O'z rohatin o'ylab bandda qolmagin.

Yoki:

Zolimga sabr etma, jazo joriy qil,
Zulmdan semirgan terisini shil.
Eling qo'ylarini yormasdan paqqos,
Bo'ri boshin kesib, elni et xalos -¹⁹

degan nasihatlarini uqtirib o'tadi. Manbalarda keltirilishicha, Hurmuz binni Anushervon otasining vasiyati bilan taxtga o'tirgan. “Ba'zi ani zolim jobir debturlar. Ammo ba'zi adl va insofqa nisbat beribdurlar”,²⁰- degan ma'lumotlar ham keltiriladi.

¹⁷ Саъдий. Гулистон. –Тошкент: Фафир Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968. 49-бет.

¹⁸ Ochilov E. Barhayot siymolar. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. 61-bet.

¹⁹ Саъдий Шерозий. Бўстон. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. 14-бет.

²⁰ Алишер Навоий. Танланган асарлар. Тарихи мулки аҷам. 14 – том. –Тошкент: Фан, 2000. 245 – бет.

Pand-nasihati, hikmat Sa'diy asarlarining qat-qatiga singib ketadi. U hayotiy voqea-hodisalarni turli shakllarda ifodalab, ko'rgan-kechirganlari yuzasidan xulosa chiqaradi va kishilarning insoniy kamolotga da'vat etadi.

Ma'lumki, nasr va nazm aralash xalqona uslubda yozilgan, rivoyat, naql, hikmatga boyligi bilan katta shuhrat qozongan "Guliston" asari o'zbek tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Zero, tarjima asari bu boshqa xalq yaratuvchisi yaratgan narsadan aynan ko'chirilgan o'lik nusxa yoki uning mexanik takrori emas. Tarjima boshqa tildagi badiiy go'zallikni o'z xalqi uchun ijodiy o'zlashtirish, yangi tilni quvvati va qudratini namoyish etib asarni shu tilning san'ati hodisasiga aylantirish demakdir. O'zbek adiblarining ko'pchiligi tarjima funksiyasi va mohiyatini ana shu tarzda tushunub ijod etganlar. Shayx Sa'diyning "Guliston" asari birinchi marta 1390-1391-yillarda XIV asr o'zbek adabiyotining taniqli namoyondalaridan biri Sayfi Saroyi tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan. U asarni aslini aytarli saqlab qolgan, ayni paytda, asliyatdan bir qadar chekingan. Bu davr omili bilan bog'liq: o'rta asrlarda tarjimaga bir muncha erkin yondashilgan, tarjima asarni qisqartirish, o'zgartirish, hatto unga qo'shimcha qilishi mumkin bo'lgan.

Sayfi Saroyi ham tarjima jarayonida "Guliston"dagi ayrim parchalarni tushurib qoldiradi, ba'zi she'rlarni ijodiy qayta ishlaydi. Sayfi Saroyi tarjimasida Sadiyning "Guliston" asaridagi No'shiravoni odil bilan bog'liq hikoyatlarni o'z holicha qoldiradi. "Guliston bit-turkiy"da ham yigirmanchi, o'ttiz birinchi hamda o'ttiz to'rtinchi hikoyatlarda No'shiravon haqidagi hikoyat aynan saqlab qolingan. Albatta, Sayfi Saroyi "Guliston"ning nasriy qismini ham katta mahorat bilan, shoirona xassoslik bilan tarjima qilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

No'shiravon obrazining navbatdagi manbalaridan biri fors-tojik adabiyotining namoyondalaridan biri Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asari hisoblanadi. Jomiy juda ko'p she'riy va nasriy asarlar muallifi sanaladi. Bular orasida uning "Bahoriston" asari muhim ahamiyatga egadir. Bu asarni Alisher Navoiy: "Hayot bahoristoni va najot nigoristoni",- deb atagan. Kitob Sa'diy

Sheroziyning “Guliston” asari uslubida yozilgan bo‘lib, u sakkiz bobdan iborat hisoblandi. Har bir bobi ravza, yani chamanzor deb ataladi. Kitobda o‘sha zamon matafakkirlarning adolatga undovchi urinishlari, donishmand, hakim iboralari, adl-u insof va raiyatparvarlikka oid hikoyatlar, she’riy parchalar, to‘grilik, saxiylik, mardlik, olijanoblik haqidagi hikoyatlar orin olgan. Asarning uchinchi bobida muallif No‘shiravon faoliyatiga oid hikoyat keltiradi. Hikoyatning mazmuni quyidagicha: No‘shiravon Navro‘z yoki Mehrjon kunlarining birida mehmon chaqiribdi. O‘tirgan qarindoshlaridan biri oltin qadahni qo‘yniga berkitganini ko‘rib qolibdi. Podshoh hech narsani ko‘rmagandek indamay qo‘ya qolibdi. Bazm oxiriga yetgach, soqiy: -Hech kim chiqmasin, oltin qadah yo‘qoldi, men hammani tintib ko‘raman”, - debdi.

— Qo‘y, -debdi unga No‘shiravon, — olgan bermaydi, ko‘rgan aytmaydi.

Bir necha kundan keyin o‘sha kishi No‘shiravon huzuriga kelibdi, qarasa ustida yangi libos, oyog‘ida yangi etik. No‘shiravon uning kiyimlariga ishora qilib: “Bu o‘shandanmi?” – deb so‘rabdi. Qarindoshi to‘ning etagini ko‘rsatib: “Bu ham o‘shandan”, debdi. Podshoh kulib yuboribdi va uning qilgan ishi yo‘qlik va zarurat natijasida ekanligini tushinib, unga ming misqol oltin berish haqida farmon chiqaribdi.²¹

Jomiy bu hikoyatda No‘shiravonning karam bobida ham tengi yo‘qligini ko‘rsatib bergan, shu bilan birgalikda har bir davlat boshqaruvchisini ham shunga da’vat etadi. Jomiyning bu asari Sa’diyning “Guliston” asariga o‘xshab ketsa-da, aynan uning o‘zi emas. Jomiy No‘shiravon obrazi bilan bog‘liq hikoyatni o‘z o‘rnida mahorat bilan joylashtirgan.

Shuningdek, o‘zbek adabiyotida ham No‘shiravon obrazi salmoqli o‘rin tutadi, Buni biz o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan bo‘lgan Alisher Navoiy hamda Poshshoxo‘ja ijodida kuzatish mumkin. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan xalq ijodidan ilhomlandi va undan barakali foydalandi. No‘shiravoni odil obrazi Alisher Navoiy ijodiyotida ham

²¹ Абдурахмон Жомий. Баҳористон. –Тошкент: Ёш гвардия, 1974. 25-26 бетлар.

ma'lum darajada o'rin olgan. U No'shiravon nomini odillik ramzi sifatida bot – bot zikr va tavsiflash bilan birga, bir necha hikoyatlar ham keltirganini ko'ramiz. Alisher Navoiyning bir qator asarlarida No'shiravoni odil obraziga murojaat qilib a'lo darajada tasvirlagan. Bu obrazlar bir – biridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hikoyat Navoiy ijodida salmoqli o'rin tutgan janrlardan biridir. Alisher Navoiy maxsus hikoyatlar to'plami tuzgan, faqat hikoyatlardangina iborat bo'lgan asar yozgan emas. Ammo shunga qaramay, buyuk sohibqalamning merosini hikoyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning dostonlarida, xususan, “Hayrat ul - abror”, “Sab' ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” va “Lison ut - tayr” dostonlarida, “Tarixi mulki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo” va boshqa asarlarida ikki yuzdan ortiq hikoyatlar bor.

Navoiy hikoyatlari u yashab ijod etgan davr va sharoit bilan uzviy bog'liq bo'lib, shoir ularda shu hayotning eng muhim masalalaridan bo'lgan adolat va osoyishtalik, saxiylik va insonparvarlik, sofdillik va to'g'rilik, mehnat va ilm-hunarning ahamiyati kabi qator g'oyalarni tarannum etadi. Navoiy hikoyatlarining yaratilishidagi asosiy manbalardan biri o'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotidir.

Navoiy har bir asarini yozishda manbalarni chuqur tahlil qildi. Tarixiy manbalarni esa ilmiy tadqiq qildi, turli xalqlar hayotini shunday o'rgandiki, oddiy xalqlarning urf – odatlaridan tortib, xalq ijodiga qadar qunt bilan tekshirib chiqdi va barcha asarlarida ularni mahorat bilan ishlatdi. Shoirning ana shu asosda yaratgan ko'plab baytlari, g'azallari xalq mulkiga aylanib ketdi.²²

Navoiy hikoyatlarining qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan nomlanadi, ularning orasida sof to'qima obrazlar ham anchagina. Shohlar, yunon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotami Toy, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bistomiy va boshqalar Navoiy hikoyatlarining qahramonlaridir. Ammo hikoyatlardagi qahramonlar aynan tarixiy shaxslarning obrazi bo'lmay, balki ayrim jihatlarni saqlab qolishga qaramay, badiiy fantaziya, ijodiy to'qima

²² Собиров М. Халқ ҳикоятлари Навоий ижодида. –Тошкент: Ўзбекистон, 1963. 6 – бет.

bilan yo'g'rib, allaqachonlar an'anaviy adabiy obrazlarga aylanib ketgan edi. Masalan, No'shiravon-adolat, shon-shavkat timsoli sifatida gavdalanadi. Alisher Navoiy o'z asarlarida No'shiravoni odil obrazining turli fazilatlarini ochib bergan. Jumladan, axloq-odob va donishmandlik bobida beqiyos kishilardan biri sifatida ta'rif-tavsif etganligini ko'ramiz. Navoiy ham No'shiravon an'anaviy obrazining bu jihatini e'tibordan chetda qoldirmay ibratli fikrlar bilan bayon qildi. Shuningdek, nasriy asarlarida ham bu obrazga murojaat etganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, "Tarixi mulki ajam" ("Ajam shohlari tarixi")da No'shiravon qaysi sulolaga mansubligi, taxtga o'tirishi, uning hayoti va necha yil hukmronlik qilganligi haqida aytib o'tiladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Navoiy tarix ilmining ham bilimdoni bo'lgan.

"Tarixi mulki ajam" asaridagi No'shiravoni odil haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalardagi ma'lumotlar bilan deyarli bir xil. Ushbu asardagi No'shiravon obrazining o'ziga xosligi shundaki, Navoiy bu obrazga ham tarixiy, ham badiiy nuqtayi nazardan yondashgan hisoblanadi. Asardagi No'shiravonning Rum, Chin, Hindiston mamlakatlarini egallashi, u yerdagi yo'llarni tuzatib, bog'lar barpo etishi, musofirlarni farog'at bilan yashashlarini ta'minlashi haqidagi fikrlar ushbu obrazning tarixiylik darajasini isbotlasa, asar tarkibidagi hikoyatlarda No'shiravon obrazining badiiylashtirilganligining guvohi bo'lamiz.

"Tarixi mulki ajam"da "No'shiravon-odil binul Qubod" fasli bo'lib, boshqa fasllarda bo'lgani kabi unda ham tarix bilan rivoyat uyg'unlashib, chatishib ketgan. "Tarixi mulki ajam"dagi birinchi hikoyat: "Debdurlarki, aning davrida, birov yana birovdin bir bog' sotqun oldi va ul bog'da kirmond dafina topdi. Bog'ning buring'i egasiga ayttikim, kelib bog'dagi topilgan madfunni olg'ilkim, men sendin bog' sotqun olibmen, yo'qki o'zga nima olganim yo'q. Ul ayttikim, men senga bog'ni har ne bilaki anga doxildur sotibmen. Ba'zi dedilarkim, bu numa baytul-mol doxildu, podshohqa taaluluq tutar. Har taqdir bila mojoro No'shiravonga yetishti. No'shiravoni odil so'radikim, o'g'il-qizingiz bormi? Hamonki bor erdi, buyurdikim, ul birining qizini ul birining o'g'lig'a berdilar. U dafinani ul iki yangi

kadxudoy bo‘lg‘onlarga musallam tuttilar”²³. Mo‘jaz, ammo nihoyatda ibratli hikoyat “mojoro”ni No‘shiravonning odilona hukmi bartaraf etib, topilgan “dafina” goyo bog‘ sotgan va bog‘ sotib olganlarning farzandlari to‘yiga to‘yona bo‘ladi. Mazkur hikoyat sujeti juda keng tarqalgan. Uning ildizlari qadimgi Sharq va G‘arb adabiyotida (masalan, Rim komediyanavisi Tit Makk Plavtning “Xumcha” asarida bor. Muhammad Avfiy “Javome ul – hikoyat”da bu mavzu va sujetni hind manbai asosida bayon etganini ta’kidlab, “Hind kitoblarida keltirilganki...” deb so‘z boshlaydi. Unda mojoro Hind Royi (shohi)ning odilona hukmi bilan hal etiladi. Mazkur sujet No‘shiravon nomi bilan boshqa mualliflarda, jumladan, XIV asr o‘zbek hikoyanavisi Xojada ham bayon etilgan.

Yana bir hikoyat No‘shiravon “Bir kuni yo‘lda tushib, kabob buyurdi. Tuz yo‘q erdi. Yaqinroq bir kent ko‘rindi. Birov bordikim tuz keturgay . No‘shiravon mubolag‘a qildikim tuzni sotqin ol! Majlis huzori aytdilar: bu tuz ne miqdor baho bo‘lg‘ayki, sotqun olg‘aylar? Dediki, muncha bemiqdor nima uchun, podshoh nechuk yomon rusum qo‘yg‘ay, yomon rusum juzviy bo‘lsa, har kishi bir nima orttirub, ani kulliy qilurlar. Badnomlik ani bunyod qilg‘ang‘a bo‘lur.”²⁴

Bu hikoyatda ham No‘shiravon insof va adolatning homiysi va posboni sifatida gavdalanadi. Yuqoridagi hikoyatlar asar badiiyligini uni xalqchil bo‘lishiga va No‘shiravon obrazining yanada sayqal topishiga sababchi bo‘lgan. Bundan tashqari, Navoiy faslni No‘shiravonning vasiyatnomasi va taxtning poyasiga bitilgan so‘zlar bilan tugatadi. “Va aning , - deydi Navoiy , - soyir sultonlar uchun vasiyatnomasi borkim, ne dastur bila saltanat qilg‘aylarkim, barchasin bitilgay, ikki-uch kalmia bila ixtisor qilildi: va ul buldurkim adl bir qo‘rg‘ondurkim, suv solib yiqilmas va o‘t bila kuymas, manjaniq (urushda dushmanga qarshi ichiga tosh solib otiladigan qurol) bila buzulmas. Va adl ganjidurkim, ko‘prak olg‘an sayin ko‘prak bo‘lur va ozroq xarj qilsang ozroq bo‘lur”.²⁵ Bu so‘zlar keltirilgan hikoyatlarga jo‘r bo‘lib ketadi.

²³ Алишер Навоий. Танланган асарлар. Тарихи мулки аҷам. 14 – том. –Тошкент: Фан, 2000. 224 – бет.

²⁴ O‘sha asar, 225 – бет.

²⁵ O‘sha asar, 226-bet.

Noʻshiravon axloq – odob va donishmandlik bobida ham beqiyos kishilardan biri sifatida taʼrif-tavsif qilingan. Navoiy ham Noʻshiravon obrazining bu jihatini eʼtibordan chetda qoldirmay, “Tarixi mulki ajam”da uning soʻzlaridan keltirsa, “Hayrat ul - abror ”da ibratli oʻgit beruvchi bir hikoyatni bayon etadi. “Tarixi mulki ajam”dan “Va xiradmand uldurkim, maxfiy andoq ish qil magʻiykim, oshkora ani qila olmagʻay va birov aybida andoq soʻz demagaykim, yuzida dey olmagay. Urushta dushman oz deb gʻofil boʻlmamoq kerakkim, koʻp oʻtinni oz oʻt kuydirur. Taxtni toʻrt poyasida toʻrt soʻz bitilib erdikim har kimda podshohliq yoʻq – komkorlik yoʻq, har kimda xotin yoʻq – gʻamgusorlik yoʻq, har kimda farzand yoʻq – doʻstdorlik yoʻq, har kimda bular hech qaysi yoʻq – bemorlik yoʻq”.²⁶ Bu podshoh odil, orif va donishmand boʻlishi lozim degan oʻy va orzuning bir ifodasidir.

Bundan tashqari, Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham Noʻshiravoni odil tilga olinadi. Bu asar Sharq tarixnavisligi anʼanalari usulida yaratilgan. Unda jahonning barcha madaniy xalqlari tarixnavisligida boʻlganidek, soʻz qadimiy diniy rivoyatlar, yaʼni Odam Ato va Havvoning yaratilishini hikoya qilishdan boshlanib, Odam avlodlari va ular orasidan chiqqan paygʻambarlar tarixini bayon qilish yoli bilan davom etadi. Asarning uncha katta boʻlmagan ikkikchi qismida jahonga mashhur olimlardan Luqmon Hakim, Buqrot, Suqrot, Balinos, Sodiq va boshqalarni hikmatli soʻzlaridan namunalar keltirgan. Navoiy Sodiq degan hakimni tilga oladi: “Noʻshiravoni odil zamonida erdi va Noʻshiravongʻa nasihatnoma bitibdur. Bu mufid soʻz aning soʻzlardurkim, shah va gadogʻa umumiydur . “Lo yakul taoman va fi medatika taoman”²⁷ (Medangda ovqat boʻla turib, uni ustidan ovqat yema). Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayon boʻladiki, Noʻshiravoni odilning podshohlik davrida buyuk hakimlar davrasida

²⁶ Oʻsha asar, 226-bet.

²⁷ Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. –Самарқанд: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг бўлими, 1990. 62- бет.

faoliyat yuritgan, ularning ibrotomuz soʻzlarini oʻziga dasturamal sifatida qabul qilgan.

Noʻshiravon haqidagi hikoyat va rivoyatlar oʻzbek adabiyotining zabardas vakili Poshshaxoʻja ijodida ham uchraydi. Uning “Miftoʻh ul - adl” va “Gulzor” asarlari Noʻshiravon obrazining noyob manbalaridan hisoblanadi.

Ulugʻ shoir Navoiydan keyin oʻtgan va adabiyotda oʻziga xos munosib oʻrin egallagan Turdi, Gulxaniy, Uvaysiy, Muqimiy, Furqatlar oʻzlarini Navoiyning shogirdlari hisoblashib uning asarlariga nazira va tazmin muxammaslar bogʻladilar. Ular har vaqt Navoiyning ijodiyotidagi ilgʻor gʻoyalarni oʻzlashtirdilar, ilhom manbai sifatida unga murojaat qildilar. Shunday yozuvchilardan biri Abdulvahobxoʻja oʻgli Poshshaxoʻjadir. Uning kichik ibratli hikoyatlarini oʻz ichiga olgan “Miftoʻh ul - adl” va “Gulzor” asarlari oʻzbek nasrining muhim manbalaridan hisoblanadi.

“Miftoʻh ul - adl” va “Gulzor”dagi hikoyatlar didaktik mazmunga ega. Muallif ularda biror kichik voqeani hikoya qilish orqali kitobxonlarga pand-nasihat qiladi, ularga oʻgit beradi, ijtimoiy, siyosiy va axloqiy-taʼlimiy masalalarga doir xulosalar chiqaradi. U pand-nasihat qilish va oʻgit berish yoʻli bilan adolat va osoyishtalik oʻrnatish, zolim podshoh va amaldorlarni jilovlash, davlatni qatʼiy qonun-qoidalar asosida boshqarish, kishilarning xulq-atvoridagi kamchiliklarni, turli ijtimoiy tabaqalar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish mumkin deb oʻylaydi. “Miftoʻh ul - adl” va “Gulzor”da xilma xil obraz va xarakterlar yaratilgan. Ular turli ijtimoiy tabaqalarga munosib boʻlgan kishilar: shohlar, vazirlar, amaldorlar, ruhoniylar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, choʻponlar, darveshlar, oʻgʻrilar, bezorilar va boshqalardir. Bir ijtimoiy tabaqaga mansub boʻlgan kishilar mushtarak va individual xususiyatlari bilan gavydalanitiriladi. Yozuvchining tushunishicha, bir ijtimoiy tabaqaga mansub boʻlgan kishi turlicha xarakterda boʻlishi, ijobiy yoki salbiy boʻlishi mumkin. Shunga koʻra, odil va zolim podshohlar, donishmand va munofiq vazirlar, vijdonli va bezori sipohiylar obrazini yaratadi. Koʻpincha bunday kishilarning salbiy obrazlarda yozuvchi ularga xos boʻlgan realistik xislatlarni

badiiy umumlashtirib bersa, ijobiy obrazlarning faoliyati va qiyofasida adolatli podshoh, donishmand vazir haqidagi orzu-tilaklarini mujassamlashtiradi. Dehqon va cho‘pon kabi mehnatkash tabaqa namoyondalari halol, to‘g‘ri, aqlli, irodali va or-nomusli kishilar sifatida tasvirlanadi. Bu xususiyatlari bilan “Miftoh ul - adl” va “Gulzor” hikoyatlari yanada xalq og‘zaki ijodiga yaqin turadi.

Hikoyatlarning ayrim obrazlari tarixiy shaxslarning nomi bilan atalsa-da, biroq ular bu tarixiy shaxslarning obrazi emas, balki badiiylashtirilgan obrazlaridir. Ular og‘zaki va yozma adabiyotda allaqachonlar mana shunday badiiylashtirilgan obrazlarga, ko‘pincha orzu va xayoldagi odil va ma‘rifatparvar podshohlarning ideal obraziga aylanib ketgan edilar. Bu, albatta, No‘shiravoni odil nomi bilan ham bog‘liq. Yozuvchi mamlakat va xalq taqdirini podshohga, uning saroy ahllariga bog‘laydi. Bu fikrlarni dalillash maqsadida “No‘shiravon va hakim” hikoyatini keltiradi.

“No‘shiravon beklari va hakimlarini yig‘ib, xalq bilan qanday munosabatda bo‘lish haqida kengashganida beklar oliq-soliqni ko‘paytirib, qo‘shinni mustahkamlash kerak, deydi. Donishmand Buzrugmehr esa bu xato yo‘ldir, bu yo‘l el- yurtni ham, davlatni ham xonavayronlikka olib boradi, deydi. Uning taklifi beklar bir joyga, uning o‘zi boshqa bir joyga ovga chiqadilar va shikorlarini podshohga keltirib beradilar. Beklar birinchi kuni ko‘p ov ovlaydilar, biroq ikkinchi kuni ovsiz qaytadilar, chunki birinchi kundagi dahshatli ov hayvonlar va qushlarni to‘zg‘itib, qo‘rqitib qo‘ygan edi. Donishmand esa oz bo‘lsa ham, har kuni ov bilan qaytadi. Podshoh vazirning oliq-soliqni ko‘paytirishga qarshi e’tirozi to‘g‘ri ekanini e’tirof qilib, adolat bilan ish ko‘radi ”.²⁸

Bu hikoyat quyidagi masnaviy bilan tugaydi:

Raiyatni tadbir ila rom qil,
Adolat saririda orom qil.
Raiyatga adl ila qilsang maosh,
Kam o‘lmas saxo sufrasi ichra osh.

²⁸ Пошшоҳўжа. Мифтоҳ ул адл ва Гулзордан. –Тошкент: Давлат бадий адабиёт, 1962. 40 – бет.

Chiqorg'il oning dudi ohidan.
Sitamkash agar oh cheksa sahar,
Kuyar ohining o'tidin bahr-u bar.
Eshik yopma mazlurning yuziga,
Ko'zung och, quloq sol oning so'zig'a...²⁹

Muallif podshohning xalqqa posbon va cho'pondek mehribon bo'lishni istaydi.

Shu g'oya asosida u adolatli va adolatsiz podshohlar, vazirlar, amaldorlar obrazini yaratadi, "posbon" va "cho'pon"larni maqtaydi, ulug'laydi, "bo'ri"larni qattiq qoralaydi, birlarini jazolaydi, birlarini qayta tarbiyalaydi. Bu fikrlar Poshshaxo'ja ijodiga Navoiyning ta'sirini ham yaqqol ko'rsatadi.

"Miftoh ul – adl" asaridagi yana bir hikoyatda adolat g'oyasi ilgari suriladi. Bu g'oya boshqa bir necha hikoyatlarda bo'lgani kabi No'shiravon obrazida mujassamlashtirilgan (No'shiravon va beva xotin). No'shiravon – adolatli ideal hukmdor. U el-yurtning osoyishtaligi va farovonligi uchun kurashadi, faqir fuqaroning haqini himoya qiladi, ularning arz-dodini adolat bilan hal etadi, zolimlarning jazosini beradi. U shunchalik odilki, hatto ishga yaroqsiz bo'lib qolgan bir ojiz hayvonga – eshakka ham g'amxo'rlik qiladi. O'tmishda kishilar shunday hukmdorni bo'lishini orzu qilib, o'z orzularini turli xildagi badiiy obrazlarda ifoda etganlar. No'shiravon obrazi ham mana shunday obrazlardan biri sifatida vujudga kelgan edi. Hikoyatning asosiy sujet va kompozitsiya qismini bek, beva xotin va No'shiravon voqeasi tashkil etadi. Keyingi epizodlar esa shu voqeani ilovasidir. Bu ilova asosiy voqeaning mazmunini to'ldirish bilan birga, hikoyatning badiiy qimmatini ham orttiradi. Bu jihatdan, ayniqsa, "eshak voqeasi" epizodi juda xarakterli bo'lib, u "qissadan hissa" chiqarishga xizmat qiladi. Bu mazmundagi hikoyatlar Nizomulmulkning "Siyosatnoma" va Husayin Voiz Koshifiyning "Ahloqi muhsiniy" asarlarida ham uchraydi.

²⁹ O'sha asar, 41-bet.

“Miftoh ul - adl” va “Gulzor”da o‘z mohiyati bilan “No‘shiravon va beva xotin” hikoyatiga yaqin bo‘lgan yana bir necha hikoyat bor. (“Sulton Mahmud va Darvesh”, “Bahrom va cho‘pon”.)

Xojaning “Gulzor” asaridagi keyingi hikoyatda ham No‘shiravonning adolatparvarligi madh etiladi. Hikoyatda No‘shiravon va bir qari xotinning o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bir voqea asos qilib olingan. Hikoyatda qari kampir No‘shiravonning adolatparvarligini yuksaklarga ko‘taradi va o‘zi qilgan ishidan shoh oldida boshini egadi hamda uzr so‘raydi.

Poshshoxoja asarlarida bunday obrazlar bilan yonma-yon ravishda o‘g‘ri, talon - tarojchi hukmdorlar ham ko‘rsatiladi, ular muallif tomonidan qoralanadi.

Xulosa qilib aytganda No‘shiravoni odil obrazi adolatli podshoh sifatida Sharq adabiyotida, jumladan, fors-tojik o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida keng qo‘llanib kelingan. Mazkur an‘anaviy obraz ijodkorlarning adolatli shoh, adolatli jamiyat haqidagi fikrlarini, shuningdek, odo-axloq, insoniy fazilatlar haqidagi qarashlarini ifodalashga ham ahamiyali o‘rin tutgan.

2.1. Epik she‘riyatda No‘shiravon obrazi. O‘zbek epik she‘riyatida No‘shiravoni odil nomi bot-bot tilga olinadi. Adiblar o‘z asarlarida bu nomni tilga olar ekanlar o‘zlarining adolatli podshoh haqidagi orzu-o‘ylarini, istaklarini aks ettirishni maqsad qilganlar yoki o‘sha davrdagi zolim, xalq ahvolidan bexabar bo‘lgan podshohlarga tanbeh berishda ham No‘shiravon nomini qayd etganlar. Buni biz o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy hamda Xoja ijodida keng ko‘lamda aks etganligini kuzatishimiz mumkin.

Ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning asarlarida milliy davlatchiligimiz ma‘rifatini butun bir konsepsiyasi o‘z ifodasini topgan. Adolat Navoiy ijodining yetakchi g‘oyasidir. Uning “Xamsa” dostonlarida mazkur g‘oya turli tomondan olib qaraladi, xilma-xil obraz va timsollar hikoyat va rivoyatlar tasviri orqali adolatparvarlikning jamiyat taraqqiyoti, yurt tinchligi va obodligi uchun naqadar zarur va ahamiyatli ekanligi isbotlab beriladi.

Navoiy o‘zi amirlik lavozimida ko‘p yillar faoliyat ko‘rsatib, jon-jahdi bilan adolat uchun kurashgani, bir qancha zolim amaldorlarni jazolash, lavozimidan chetlashtirishga erishgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Ulug‘ shoir, bir tomondan temuriylar saltanatining davomiyligi, mustahkamligi uchun kurashsa, o‘zaro nizolarni bartaraf etishga urinsa, ikkinchi tomondan, turli kasb egalari, oddiy odamlar ojiz va nochor kishilar himoyasi uchun jonbozlik qilar, qo‘lidan kelgancha “navosiz ulusning navobaxshi bo‘lishga” intiladi. Shu ma’noda u adolatni hammadan birday talab qilardi, odillikni insoniy fazilat, islomiy axloq qoidasi deb ta’riflardi. Navoiy nazarida podshohdan tortib, vazir-u amirlar, qozi-yu mufti, xullas, davlatning har bir xodimi, amaldori adolat talabi doirasida ish yuritishi lozim.

Hazrat Navoiyning podshohning o‘zi odil bo‘lmasa atrofiga rostgo‘y, sofdil xodimlarni to‘play olmaydi. Zero, zolim podshoh zulm-u sitam ahliga tayansa, odil podshoh adolatparvar, xalqparvar kishilarga suyanib siyosat yurgizadi. Shu bois ham Alisher Navoiy Iskandar, No‘shiravon kabi odil podshohlarni o‘z asarlarining ideal qahramonlari qilib tasvirlab, ulardan ibrat olishga chaqiradi. Xuddi shu ma’noda nasihat va tanbehlardan tuzilgan “Mahbub ul-qulub” (“Qalblarning sevgani”) asari ham “Odil salotin zikrida” degan bob bilan boshlanadi ba unda quyidagicha ta’riflar keltiriladi: “Odil podshoh Haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka majubi amniyat rafohat”.³⁰

Ya’ni: “Odil podshoh Allohning xalqqa yuborgan rahmati va mamlakat uchun omonlik va yuksalish sababchisidir”. Asarda aynan ana shu ikki jihat – yurt omonligiga asoslangan siyosat, avvalo, yaxshilikni, yaxshi insonlarni, mehnat, hunar ahlini himoya qilishi va kazzob o‘g‘ri, nabokor, qaroqchi-yu talonchilarni jazolash hisoblanadi. Odil podshoh Siyosati haybatidan savdo yo‘llari qaroqchilardan holi, fuqaro uning olqishi va duosiga hozir. Xalq podshohdan rozi

³⁰ Алишер Навоий. Маҳбуб ул қулуб. Асарлар 15 – томлик. 13 – том. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт, 1966. 10 - бет.

bo'lsa, Haq ham undan rozi bo'ladi va ezgu niyatlarining amalga oshishiga madadkor bo'ladi,-deydi Navoiy.

“Mahbub ul-qulub” asarining uchinchi qismida Navoiy “Podshohlar zikrida” degan yangi bir bob ochib, bu mavzu ustida yana to'xtaladi. Bunda endi odil podshohning besh sifati beshta tashbeh – o'xshatish bilan tavsiflab beriladi. Ushbu sifatlarda qadimgi donishmandlarning qarashlari, xalqning orzu-umidlari zaminida hosil bo'lgan fikr-ta'riflar qisqa bir tarzda o'z ifodasini topgan. Chunonchi, odil podshoh ko'prik, o'rmon, quyosh, bahor buluti va bo'z kigizga o'xshatiladi. Ko'prikka o'xshatilishi shu ma'nodaki,-deydi Navoiy, -“ko'prik maxluqotning xasisi va sharif yukin ko'tarur, alarni suv zahmatidin va balchig' mashaqqat-u g'ilzatidin o'tkarur” (ya'ni odamlarning har qanday yukini ko'taradi va ularni suv azobi-yu balchiq mashaqqati iskanjasidan xalos etadi). O'rmonga o'xshatilishining sababi shuki, o'rmon barcha jonzotlar, jumladan, odamlar, hatto darranda-yu vaxshiy jonvorlarga ham joy beradi, panohiga oladi va o'z “yemak-ichmaklarini yetkaradi”. Odil podshohning quyoshga o'xshatilishi esa uning “nafi va saxovati in'omi” ommaga baravar yetishishi boisidandir. Uning adolat nuri “shahar va biyobonlarni ravshan etar va vayron-u obodqa andin yorug'lik yetar”. Bahor buluti (sahob)dan yer yuzi bahramand bo'lgani, hammayoq yashil maysa, gul-u gulzorga burkanib, ko'klam nashidasi barq urgani kabi odil podshoh himmati va pok niyati tufayli “qaro tufroqdan durlar sochilib nishlik tikonidan gullar ochiladi”. Beshinchi tashbehni izohlaganda quyidagi so'zlarni yozadi: “va ba'zi turk hukamosi (donishmandlari) va bu el oqil-u donosi o'z tavirlari bilaki kalom surubturlar, oni (odil podshohni) bo'z kiygizga masal urubturlar”. Navoiy podshohga bunday nisbat berilishining sababini quyidagicha izohlaydi: birinchidan, kigiz “suvdan va tufroqdan yuziga ne kelsa, tahammul qilur, (sabr-u andisha bilan chidaydi), o'ziga singdirur”, sanchiqlariga ham bardosh beradi. Ammo supurganda bu tuproq va suv bir zumda chiqib ketadi, sanchiqlar izi ham bilinmaydi, ular kigizni “yuziga asar yetkurmas”dan yo'qoladi. Shoir insoniyatning azaliy orzusi bo'lgan adolatli jamiyatga ma'naviy barkamol podshohning odil siyosati zarur deb biladi. “Hayrat

ul abror” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida o‘z orzusidagi odil podshoh timsolini yaratadi va bu podshohning siyosati tufayli vujudga kelgan kuchli davlatchilik g‘oyalarini tarannum etadi.

Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining axloqiy-ta’limiy asarlarini, tarix kitoblari va epik adabiyotini hikoyatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ularning deyarlik hammasida ibrotomuz hikoya, tamsil va masallar, latifa va afsonalar bor. Ko‘pincha bir epizoddan iborat bo‘lgan qisqa sujetli mustaqil asar yirik asarning tarkibiga uzviy ravishda kirishib boradi, ma’lum muddaoni asoslashga xizmat qiladi. Shunday qilib, katta asarlar tarkibiga kirgan “qistirma” hikoyat ham g‘oyaviy, ham badiiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida No‘shiravonni boshqa asarlarida ko‘zga tashlanmaydigan jihati, ya’ni axloq-odob bobida ham beqiyos kishilardan biri sifatida ta’rif-tavsif qiladi. Adolatli bo‘lish, Alisher Navoiy fikricha, oliy axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishni ham talab etadi. Inson ma’naviy jihatdan ham, qilmishlarida ham poklikka rioya qilishi kerak. Fikrda ham, amalda ham poklik mavjud bo‘lgandagina yaxshi ishlar yuzaga chiqishi mumkin. Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida podsholarga murojaat qilib shunday deydi:

Bil munikim, sen dog‘i bir bandasen,
Ko‘pragingdin ojiz-u afgandasen.

Ermas alar tufrog‘-u sen nuri pok,
Xilqat alarg‘a sanga-tiyra pok.

Barcha javorix bila a’zoda teng,
Surati navi-yu hayoloda teng.

Lek hunar ichra, kamol ichra ham,
Xulqi xush-u lutfi maqol ichra ham.

Ham ravishi adl-u ham insof aro,
Hilm-u hayo-u bori avsof aro.³¹

Ya'ni sen shuni bilki, sen ham bir bandasan, aslida ularning (oddiy xalqdan) ko'zlaridan ojizsan, quyisan. Ular tuprog'-u sen toza nurdan emas, aslida sen va ular qora tuproqdan yaratilgansizlar. Hamma a'zo tan bo'laklarida, tashqi ko'rinishda ham, tuzulish moddasi e'tibori bilan ham tengsan. Lekin hunar bobida, aqliy yetuklikda, yaxshi xulqda, chiroyli so'z so'zlashda, adolat bilan ish tutishda, insofda, yumshoqlikda, hayoda, boshqa sifatlarda – shariat yo'lida, ibodatda, Xudo yo'lida qattiq turishda – to'g'ri yo'ldan sen ancha yiroqsan.

Navoiy aytmoqchiki, davlat boshqaruvchilari yaxshi xulqli, hayo, adab kabi xususiyatlarga ham ega bo'lishlari shart. Bu fikrlarini dostonidagi Shoh G'oziy haqidagi bir voqeada (XXVII bob) davom ettirib podshohning adolatliligini ibrat qilib ko'rsatadi. Dostonning keyingi boblarida bu fikrlar rivojlab boraveradi. Navoiy dostonning oltinchi maqolotida odob, tavoze' masalalariga bag'ishlab qimmatli fikr mulohazalarini, hikmatlarini bayon etgan.

Tarki adabdin biri kulgu durur,
Kulgu adab tarkiga belgu turur.

Qahqahadin kabk navo kelturib,
Boshig'a ul kulgu balo kelturub.

G'uncha kulib bo'ldi ochilmoq anga,
Yetti ochilmoqda sochilmoq anga.

³¹ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг бўлими, 1989. 47 – бет.

Barqni kulgu yiqibon tog‘ aro,
Balki qilib yer quyi tuprog‘ aro.³²

degan fikrlarni qayd etadi. So‘ng bu so‘zlarni dalillash maqsadida No‘shiravoni odilning odob-axloq, hayo sifatlariga egaligi haqidagi bir hikoyatni misol tariqasida keltiradi:

Shoh emas erkanda Anushervon,
Bo‘ldi birov ishq i bila notovan.

G‘uncha ko‘ngli to‘la qon edi,
Lek g‘ami xurdasi pinhon edi.

Yetti g‘amu mehnati bema’ anga,
Toki visol o‘ldi muyassar anga.

Bir chaman ichra tuzibon xilvatir,
Gulrux ila qildi ayon suhbate.

Komga mayl ayladi chun komgar,
Ayladi taslim o‘zin giluzor.

So‘ng‘och ilik dilbari munis sori,
Tushti ko‘zi bir buta nargis sori.

Ilgini chekdi mutag‘ayyir bo‘lib,
Dedi sumanbar mutahayyir bo‘lib.

³² Алишер Навоий. Ҳайрат ул-абзор. –Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг бўлими, 1989. 73 – бет.

“Kim bu ne qo‘l sunmog‘u chekmak edi?”

Posuxini shohi muaddab dedi:

“Kim bu visol ichraki voqe durur,

Nargisi shahlo ko‘zi mone durur”.

Ayni hayo birla futuvvat anga,

Bermadi ul amrda quvvat anga.

Nargisni to‘ldirib yoshidin,

Qo‘pti dog‘i kechti ul ish boshidin.³³

Odamzodga hayo sharif xislat va maqbul siyratdir. Hazrati Risolatpanoh (s.a.v.) aytadilarki, hayo iymon daraxtidan bitta shohdir va olamning barqaror turishining shartidir Agar sharm-u hayo oradan ko‘tarilsa va odam hech kishidan uyalmasa, olamning tartibi izdan chiqadi, odamlar orasida yaxshi rasmu odatlar bitadi, kishilar hayotiga putur yetadi. Ular bir-birlari uchun diyonat saqlamaydilar, oqibat kuchlilar zaiflarini yo‘q qiladi. Ammo hayo shunday kuchli sifatki, u odamlarning faqat o‘zlari xohlagan ishlarni qilishga yo‘l qo‘ymaydi.

Bayt:

Manhiy ishlarni buzarg‘a saf shikan bo‘lmish hayo,

La ubolilar yo‘lig‘a rahzon bo‘lmish hayo.³⁴

Demak, hayodan katta-yu kichikka katta foyda bor, yaxshi odatlarning mevasi hayo suvi va oftobida parvarish topmasa, doim xom turaveradi.

³³ Алишер Навоий. Ҳайрат ул - аброр. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг бўлими, 1989. 79 – бет.

³⁴ Хусайин Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти, 2011. 145 - бет

Bayt:

Xalq orasidin hayo yitsa, ibo rasmi ketar,
Gar hijobe bor esa, ul ham hayo osoridur.³⁵

Hayoning bir hecha turi mavjud. Ulaning biri hayoyi ato bo'lib, bunda fazilat sohibi Haq taolo ato qilgan narsalardan bahramand bo'la turib, uning dargohida isyonga yo'l qo'yishdan uyaladi.

Hayoning yana bir turi hayoyi karam, ya'ni saxiy odam o'z dargohidan tilanchini quruq yuborishdan uyalishi kerak. Hadisda aytilishicha, Haq (pok va oliy) hayo va karam sifatiga egadir.

Hayoning yana bir qismi hayoyi adabdir, ya'ni odamning qilayotgan ish va amali garchi shariat va aql yuzasidan ravo bo'lsa ham, adab hayosi uni qilishga yo'l qo'ymaydi. Chunonchi, No'shiravon nargis guli turgan uyda xotinlari va kanizaklari bilan suhbat qurmas edi. Aytar ediki: "Nargis tikilib turgan ko'zga o'xshaydi, undan ibo qilaman".³⁶

Hadislarda yozilishicha:

Hayoning turgan - bitgani yaxshidir.

Hayo faqat yaxshilik keltiradi.

Hayo imondandir.

Sharm-u hayo va kamsuxanlik imonning ikki bo'lagidir, bexayolik va gapdonlik munofiqlikning ikki bo'lagidir.³⁷

No'shiravonda yuz bergan bu holat aslida hayo emas. Chunki hayo iymondan paydo bo'ladi. No'shiravon otashparast edi, balki bu adab holati bo'lib, u adabga rioya qilgandir. Agar bunday ish islom podshohlarida yuz bersa, buni adab xayosi deb atash mumkin. Navoiy No'shiravon haqidagi fikrlarini davom ettirib quyidagicha yozadi:

³⁵ O'sha asar, 145-bet.

³⁶ Хусайин Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти, 2011. 145 - бет.

³⁷ Муҳамма пайғамбар киссаси. Ҳадислар. –Тошкент: Камалак, 1991. 84-бет.

To ani oxir bu arig‘ noyati,
Bo‘yla hayo shevasi xosiyati.

Jumlai olam aro shoh ayladi,
Adlni olamg‘a panoh ayladi.³⁸

Ya’ni oxiri buning sof niyatliligi, shunday hayochanlikning xosiyati uni butun olamga shoh qildi, adolati esa olamni panohiga oldi. Ko‘rib turganimizdek, Navoiy No‘shiravonni adolatliligini yana bir bor tilga oladi. Alisher Navoiy axloqiy sifatlarni amaliy ishlar bilan uzviy ravishda bog‘liq ekanini ta’kidlab, insonlarning o‘zaro munosabatlari muayyan axloqiy tamoyillar asosida yuzaga kelishi zarurligini ko‘rsatadi. Uning ijodida adolat g‘oyasining axloqiy tomoni insonning ichki dunyosi bilan bog‘langan bo‘lib, u odamlarni bir-biriga nisbatan mehr-muhabbattida yuzaga chiqadi.

“Hayrat ul-abror”ning boshdan oxirigacha saqlangan masala – ijtimoiy hayot, ijtimoiyot masalasidir. Bu asarda qahramonlar ko‘p. Lekin bu asarning bosh qahramoni mutafakkir shiordir. Navoiy o‘z zamonasidagi kamchiliklarni ko‘proq tanqid qiladi. Dostonda jamiyat farovon, hukumat adolatli, inson baxtli bo‘lmog‘i uchun nimalar lozim ekanligi xususida fikr yuritiladi. Maqolot va hikoyatlarda baxtli yashashni istagan inson uchun zarur bo‘lgan fazilatlar haqida so‘z yuritiladi.³⁹

Alisher Navoiy odil shoh haqidagi ideali “Xamsa”ning yakunlovchi “Saddi Iskandariy” dostoni bosh qahramonida to‘la mujassamlashgan. Navoiy qalami ostida Iskandar, avvalo, adolatli, ma’rifatli, xalqparvar, el-u yurt manfaati va mamlakat ravnaqi yo‘lida qayg‘uruvchi hukmron sifatida gavdalanadi. Navoiy adolat haqida so‘z yuritar ekan No‘shiravon nomini bot –bot tilga oladi, uning

³⁸ Алишер Навоий. Ҳайрат ул - аброр. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг бўлими, 1989, 80 – бет.

³⁹ Салоҳий Д. Навоий назмиёти. –Самарқанд: Зарафшон, 2013. 99 – бет.

adolatli faoliyatini ibrat qilib ko'rsatadi. Navoiy dostonning asosiy bayoniga o'tishdan oldin tarixga nazar tashlaydi, unda qadimgi fors – eron shohlari haqida ularning qilgan amallarini sharhlaydi. Dostonning XIV bobida to'rtinchi tabaqa vakillari bo'lmish sosoniylar haqida fikr yuritilgan. Xuddi shu bobda No'shiravoni odil nomi zikr qilingan:

Chu taxt oldi No'shiravoni Qubod,
Ul etti bino dahr aro adl-u dod.⁴⁰

Ya'ni Noshiravon Qubod taxt olib, o'zi odil shoh bo'lgani uchun dunyoda adolat va insof o'rnatdi, uni davlatni adolat bilan boshqarganligigina emas, balki dunyoda adolat va insof o'rnatganligiga ishora qilinadi.

Biz bilamizki, Navoiyning qariyb hamma asarlarida adolat turli yo'sinda ifodalanadi. “Podshohlar uchun bir soatlik adolatli bo'lishi oltmish soatlik ibodatdan ustun” degan payg'ambar hadisning talqinlarini tez – tez kuzatamiz:

Ki adl ichra o'tgan bir soate,
Erur behki, jinnu bashar toate.⁴¹

Ya'ni adolat bilan o'tgan bir soat vaqt butun insonlar-u jinlar yohud parilarning qilgan toat-ibodatidan afzal.

Shunga hamohang tarzda shoir adolat bobidagi fikrlarini rivojlantirib payg'ambarimizning yana bir fasohatli hadisini keltiradi:

“Qolut kufr aro qolsa obod mulk,
Bo'lur zulm agar bo'lsa barbod mulk.”⁴²

⁴⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Хамса. 11 – том. - Тошкент: Фа, 1993. 784 – бет.

⁴¹ O'sha asar, 117 – bet.

⁴² O'sha asar, 118 – bet.

“Zulmkor musulmon podshohdan ko‘ra, odil kofir podshoh yaxshidir”. Bu hadis ham Navoiy asarlarining markazidan joy olgan. Navoiy bu fikrlarini No‘shiravon faoliyati orqali asoslab beradi. Dostonda quyidagi baytlarni keltiradi:

Anushervon garchi kofir edi,
Vale adl zotida zohir edi.

O‘run garchi kofirga do‘zaxdurur,
Aning adlidin o‘rni barzaxdurur.

Agar kufr rizvon sori qo‘ymadi,
Vale adl niyron sori qo‘ymadi.

Ul o‘tgandin ar ming yil andozadir,
Adolatdin ovozası tozadur.⁴³

Ya‘ni No‘shiravoni odildir kim, u islomda emas edi, ammo adolatli ishlari tufayli jannatiy bo‘ldi. Aslida kofirning o‘rni do‘zaxdir, lekin uning adolatililigi tufayli o‘rni jannat va do‘zax oralig‘ida qoldi. Agar uni kofirligi jannatga qo‘ymagan bo‘lsa, uning adolat do‘zaxga olib bormadi. U dunyodan o‘tganiga ming yil bo‘lsa ham uning adolatining ovozası boshqalarga andoza bo‘ldi.

Navoiy yuqoridagi fikrlarini davom ettirib yana shunday yozadi:

Shoh ar kufr aro qolsa, adlni etsa ravon,
Tuzar mulkin andoqki No‘shiravon.

Ya‘ni shoh kofir bo‘lsa ham adolat yo‘lini o‘ziga odat qilsa, No‘shiravon kabi mustahkam mamlakatni barpo etadi.

⁴³ O‘sha asar, 117- bet.

Navoiy asriy shakllangan qarashlarni davom ettirib, podshohning axloqi, podshohning shaxsiy sifatlariga katta ahamiyat bergan.

Shuningdek, Alisher Navoiy o'zining "Lison ut-tayr" dostonining "Istig'no vodiysi"da yana bir bor Anushervonni adolatli podshoh bo'lganligi haqida qisqacha to'xtalib o'tadi. Navoiy dostonida istig'no vodiysini ta'rif-tavsif etadi, U aytadiki, u yerda a'lo va past tabaqali kishilar hammasi teng sanaladi, yoki yuz minglab din ahlining o'z e'tiqodidan voz kechib, zunnor bog'lagani-yu masih nafasidan jon taskin topguncha, yoki bu ko'hna zolim dunyoning yuz ming qon to'kishidan Muhammadning bir tun arsh uzra sayr qilganiga qadar hamma-hammasi barcha narsalar din ahli-yu kofirlar barchasi birday teng hisoblanadi, degan fikrlarni qayd etadi. Dostonida No'shiravon nomini Buxtunnasr degan zolim podshoh bilan qarama-qarshi qo'yadi.

Ming yil Zahhok ulustin to'kti qon,
To masih o'lgan bandaga berdi jon.

Yoki Buxtynnasr qildi zulm-u kin,
Yoki No'shiravong'a adl o'ldi qarin.

Ikkisining munda birdir hukmi bil.
Kel bu istig'no sari nazzora qil.⁴⁴

Ya'ni Zahhok ming yil ulus qonini to'kkan bo'lsa ham, yoki Masih o'lgan bandaga jon ato etgan bo'lsa-da, yoki Buxtunnasr elga zulm solgan bo'lsa ham, yoki No'shiravon adolat egasi bo'lsa –da, bu yerda ikkisiga ham bir xil hukm deb bilgin, kel bu ehtiyotsizlikni tomosha qilgin.

Abdulla Avloniyning "Muxtasar tarixi anbiyo va tarix islom" asarida yozilishicha, "Buxtunnasr Bobil shahrining podshohi bo'lib, Bani Isroil davlatini

⁴⁴ Алишер Навоий. Лисон ут – тайр. 11 – том, -Тошкент: Бадий адабиёт, 1966. 185 – бет.

buzib Quddus sharifni olib, Bayt ul-muqaddasni xarob qildi. Tavrod nusxalari Buxtunnasr tomonidan o'tda kuydirildi bir nusxa ham qoldirmadi". Buxtunnasr qanchalik zolim bo'lmasin, No'shiravon adolatli bo'lishiga qaramay ikkalasiga ham hukm bittadir. Navoiyning yuqoridagi baytlaridan quydagicha xulosa qilish mumkin. Navoiy aytmoqchiki, shoh ham, gado ham kofir yoki musulmon ham bir xil mavqega egadir.

Kufr ila ding'a chu teng miqdoridur,
Munda ish solikka bas dushvoridur.⁴⁵

Xullas, ko'pgina Sharq mutafakkirlari, davlat arboblari singari Alisher Navoiy ham mamlakat obodligi, el-yurt osoyishtaligining sababini ma'naviy barkamol podshohning odil siyosatida deb bildi.

Poshshoxojaning o'g'li Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" ("Do'stlar yodnomasi") tazkirasida yozilishicha, Xoja Nizomiy Ganjaviyning "Mahzan ul-asror" dostoniga tatabbu qilib, o'zbek tilida "Maqsad ul-atvor" dostonini yozganligi aytiladi. Lekin biz ko'rgan boshqa manbalarda Xoja Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoniga o'xshatma qilib, "Maqsad ul-atvor" dostonini yaratganligi qayd etilgan. Ammo doston matniga e'tibor qaratadigan bo'lsak bu fikrlar yanada oydinlashadi. Xoja "Maqsad ul-atvor" dostonning "Bu nazzmning sababi" bobida shunday yozadi:

Nazm xayolim aro qilg'ach guzar,
«Mahzani asror»g'a qildim nazar.

Bor edi bir necha maqola anga,
Kim dami g'ayb erdi havola anga.

⁴⁵ Алишер Навоий. Лисон ут – тайр. 11 – том, -Тошкент: Бадиий адабиёт, 1966. 186 – бет.

Koʻrdum oning ichida asrori haq,
Fayz-u tajalli bila anvori haq.

Menki maqolat ila tuzdum kalom,
Bu shahi din vasfida qildim tamom.

Berdim oning vasfigʻa tartib oni,
Qildim oning otigʻa taqrib oni.

Chun bu shah atvorini qildim bayon,
Yaxshiligʻ avsofini qildim ayon.

«Maqsad ul-atvor» qoʻyub otini,
Shuhrai shahr etdim oning zotini.

Demak, Xoja birinchi navbatda Nizomiy Ganjaviy xamsasiga juda katta qiziqish bilan qaraganligi va uning anʼanalarini davom ettirganligi ayon boʻladi. Xoja dostonida turli mavzularda bahs yuritadi, shulardan biri adolat mavzusi hisoblanadi. Dostonning ikkinchi maqolatida adolat haqida soʻz yuritib, Noʻshiravon haqidagi bir hikoyatni keltiradi. Bu hikoyatda xoja Noʻshiravonning adolatligini madh etadi. Hikoyat quyidai baytlar bilan boshlanadi:

Odil erur dahrda Noʻshiravon,
Adli ila tuzulib erdi jahon.

Mulki adolat ila maʼmur edi,
Xalq oning davrida masrur edi.

Zulm-u sitam chun o‘zi qilmas edi,
Hech kishi zulmni bilmas edi.

Gar desalar, zulm degan ham bo‘lur,
Derlar edi, zulm ne turluk turur?

Zulm-u sitam yo‘q edi ul davrda,
Xalq bori to‘q edi ul davrda.

Bir kuni No‘shiravon o‘z mulkini imtihon qilish maqsadida o‘zini xasta qilib ko‘rsatibdi. Uni ahvoldan xabar topgan ayonlari podshoh yoniga kelib, ahvolini so‘rashibdi. No‘shiravon ularga men uchun eski imorat toping xastaligimga birgina davo shudir debdi. Ayonlar mamlakatni hamma joyini qidirib birorta ham xaroba topa olmapdilar. Shu damda ularning yonidan bir boyqush chiqib, yashashi uchun birorta ham xaroba qolmaganligini aytib zorlanibdi. Bu holni podshohga yetkazishibdi. Bu so‘zni eshitgan No‘shiravon shukr qilib sajda bosh uribdi.

Xojaning bu hikoyati Nizomiy Ganjaviyning “Mahzan ul-asror” dostonidagi davlat boshqaruvchilarni adolatga chaqiruvchi No‘shiravon haqidagi hikoyatga hamohang tarzda yaratilgandir. Nizomiy hikoyatda No‘shiravonni adolat yo‘liga kirishini hikoya qiladi. Hikoyatda boyqushlarning suhbatlari No‘shiravonni adolatli bo‘lishiga undaydi. Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostonida bu hikoyatning davomi hikoya qilingandek. Chunki Nizomiy No‘shiravonni zolim podshoh sifatida va uni boyqushlarning suhbatlari tufayli adolat yo‘liga kirganligini qalamga olgan bo‘lsa, Xojaning asarida No‘shiravon yillar o‘tib adolati tufayli xalq hayoti farovon bo‘lganligi, davlatida boyqushlar yashashi uchun birorta xaroba joy qolmaganligi hikoya qilinadi. Bu hikoyatlar (shunga monand o‘zga hikoyalar ham) kitobiy manbalarda bayon etilishiga qaramay, ko‘pdan-ko‘p xalq ertaklaridagi “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda, bir odil podshoh bo‘lar ekan ... ” deb

boshlanuvchi an'anaviy sujet va obrazlarni eslatadi, g'oyaviy – badiiy xususiyatlari bilan foliklor ildiziga bog'lanadi.

Xoja dostonida No'shiravonni quydagi baytlarda ham tilga oladi, uning adolatliligini madh etadi:

Shohlar aro oting erur Jonibek,
Hashmating erur bori Jamshiddek.

Adl kitobidan emdi ol varaq,
Toki No'shiravon ko'rib olg'ay saboq.

Xoja o'zi yashagan davrning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarini hamda Nizomiy va Navoiy kabi buyuk insonparvar yozuvchilarning an'alarini davom ettirgan va ayniqsa xalq og'zaki ijodi o'rinli foydalangan.

2.2. Lirikada No'shiravon obrazi. Ma'lumki, yozuvchilar lirikada o'quvchiga ochiq – oydin bo'lmagan voqea-hodisa, yoki shaxsning aniq lahzadagi ruhiy holatini talmeh san'ati yordamida yodga soladi. Esga tushrilgan subyekt yoki hodisa simvol va ramz sifatida tasvirlanayotgan shaxs yoki voqeaga ko'zgu bo'ladi. Masalan, oshiq o'rtanishlari Farhod va Majnunning yurak iztiroblari bilan mashuqa go'zalligi Shirin va Laylining mahliyo etuvchi qiyofalari bilan muhrlanadi. Ko'pincha husn-chiroy kamoloti namunasi sifatida Yusuf esga olinadi. Shuningdek, adolat haqida so'z ketar ekan, No'shiravon nomi ham qayd etiladi. Shoirlar bu san'atga murojaat etganlarida, birinchidan, ijobiy, mifalogik, adabiy va tarixiy shaxsni eslatib, tasvirlayotgan lirik qahramoni qiyofasini yorqinroq ochishga, ikkinchidan, salbiy obrazlarni, shaxslarni eslatib, o'zi tasvirlayotgan lirik qahramon qiyofasini ko'tarinki ruhda gavdalantirishga erishganlar.

Asosan, she'riyatda No'shiravon nomi ijtimoiy ruhdagi ga'zallarda, masnaviylarda hamda qasidalarda tilga olinadi. Bunday paytda No'shiravon adolatligi boshqa podshohlarga ibrat qilib ko'rsatiladi yoki biror bir zolim

podshoh bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Bunday tasvir o'zbek adabiyotida, jumladan, o'zbek adabiyotida qasidachilik tarqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoirlardan biri Sakkokiy ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Sakkokiyning faqat g'azallari emas, qasidaları ham shuhrat topgani bizga ma'lum. Uning bizga ma'lum o'n bir qasidasidan to'rttasi Ulug'bekka bag'ishlangan. Jumladan, Ulug'bek haqidagi "Jahondin ketti tashvishi" deb boshlanadiga qasidasida shoir Mirzo Ulug'bekning taxtga chiqishini muborakbod etadi, hukmdor shaxsiyatidagi adolat-u, siyosati tavsifiga alohida e'tibor beradi. Bu qasidada Ulug'bek atoqli jamoat arbobi va tadbirli lashkarboshi sifatida berilgan. U mamlakat va qo'shinni boshqarishda afsonaviy Sulaymon, Xisrav, No'shiravon singari tadbirkor. Shuning uchun Ulug'bek beklari undan rozi, unga sadoqat ila xizmat qiladi.

Jahondin Ahraman ketib musaxxar bo'lg'oy ins-u jon,
Kim o'sh taxtini yel ko'trub Sulaymoni zamon keldi.
Boyindi taxtining qadri, o'zung toj ko'kka toshlodi,
Adolat bog'i sabz o'ldi, chu No'shiravon keldi.
Kerak jon bulbuli tun-kun navodin tinmasa bir dam,
Chu do'stlarig'a xurram yoz, adulg'a xazon keldi.

Ya'ni uning ovozasini "Sulaymon zamon"ga, adolatini "No'shiravon"ga qiyos etadi, bir so'z bilan aytganda, "shohi dono" deb ta'riflaydi. Jon bulbuli kecha kunduz sevinchini kuylab charchamasligi kerak, negaki, jonga rohat zamon keldi shohning tarafdorlariga to'kin yoz kelgan bo'lsa, dushmanlariga avji xazon-kuz kelganligi o'ta ta'sirli yo'sinda tasvirlangan.

Shuningdek, o'z she'riyatida No'shiravon nomini Xorazm tarixnavisligining yirik namoyondalaridan biri Muhammad Yusuf Bayoniyning hamda Ogahiylarning asarlarida uchratamiz. Xorazm va O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda juda nodir manbaa bo'lgan "Shajarai Xorazmshohiy" asarida Ogahiyning Muhammad Rahimxonga bag'ishlab yozilgan bir qasidasida No'shiravon nomini tilga olinadi.

Qasidada saltanat komol topishi uchun qanday ishlar amalga oshirish kerak, qanday siyosat yurgizish ma'qulligi haqida batafsil fikr yuritilgan. Yurt boshqaruvchisi qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozimligi ta'kidlab ko'rsatilgan. Bu xulosalar hamma davr – Bayoniy davri uchun ham, bizning kunimizda ham katta ahamiyatga molik. Har bir rahbar uchun, qolaversa, har bir inson uchun uzoq hayotiy tajribalar asosida aytilgan bu xulosalar hozir ham dasturil amal bo'lishi mumkin.

Ogohiy qasidasi yirik pandomuz asar bo'lib, uni boshdan oyoq tinglash katta sabru toqatni talab etardi. Yuksak mavqeyda turib aytilgan bu ulug'vor o'gitlarni xonlik g'ururiga berilmagan xokisor insongina oqib siyratiga singdirishi mumkin edi. Qasida quydagi misralar bilan boshlanadi:

Ayo, xusravi ma'dalat dastgoh,
Najobat sipehrida raxshanda moh.
Shahanshahliq o'lsun muborak sango,
Madadkor tangri taborak sango.⁴⁶

singari tabrik so'zlari bilan boshlansa-da, bunday tantanavor ruh dastlabki satrlardan nariga o'tmaydi. Tabrik ohanglari Muhammad Rahimxon soniyning otasi Said Muhammadxon vafotiga ta'ziya, taskin-tasalli so'zlariga ulanib ketadi. Avvalo, shoir qadim dunyoda odilu zolim, yovuz va ezgu... hukmdorlar ko'p kelib ketgani, alaloqibat, hammasi qazo hukmiga tobe bo'lganidan ogohlantiradi:

Qani Mirzobundoshni pokboz,
Ki, erdi ishi Haqq'a ajz-u niyoz.
Qani osmonqadr Umboy inoq,
Ki, himmatda davron aro erdi toq.

⁴⁶ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. 18-бет.

Qayon bordi Sayyid inoqi zamon,
Ki, erdi adolatda No'shiravon?
Odina Muhammad otaliq qani
Ki, baxt aylamish erdi hokim ani?
Qann Eshmuhammadbiyi Komron
Ki, chokar ango erdn ahli jahon?
Qani, ul inoqi Muhammad Amin,
Ki, Xevaqa aro erdi masnadrishin?
Qani miri odil Avazbiy inoq,
Ki, lutfu ato erdi boshdin oyoq.
Qani xoni oliymakon Eltuzar,
Ki, boshig'a qo'ymish edi toji zar?
Qani shohi olam Muhammad Rahim
Ki, aflokka qahridin erdi biym? ⁴⁷

Ogohiy ezguga ham, yovuzga ham tarafgashlik etmasdan, xolisona noqtayi nazarda turib tasvirlaydi. Shohlar Haq tomondan insonlarga adolat bilan rahnamolik qilish uchun yaratilganiga qaramay, ba'zisi lutfu karam ko'rsatsa ba'zisi zulmu sitamni ixtiyor etgani, ba'zisidan elga rahot yetsa, ba'zisida ranju mehnat qaytgani kabi dalillarning o'ziyoq yangi tojdorni o'tkinchi dunyoda yaxshilikka yo'ldosh bo'lishiga undaydi. Muhammad Rahimxoni soniy adolatli va komil sulton yetilishi uchun o'tmishdagi barcha xonlar qismatidan baxobar bo'lishi hamda o'zi uchun tegishli xulosa chiqarishi lozim edi. Shuni bilgan Ogohiy tarix manzaralari va xonlar silsilasini talmeh san'ati vositasida Muhammad Rahimxon xotirasida jonlantiradi. Ushbu badiiy jonlantirish jarayonida barcha sobiq sohibqironlarning faoliyati, ijobiy-salbiy xususiyati, xizmatlari, qadri, halokati sabablari ayon gavdalanadi. Ana shundan so'ng keksa tarixning maktabidan ta'lim olgan, talay muarrixlar merosini mutolaa etib, o'zi yetuk solnomalar yaratgan

⁴⁷ O'sha asar, 20-bet.

Ogahiy saltanat komolotining muhim shartlarini uqtirishga kirishadi:

Bugun, podshoho, sanga saltanat
Beribdur xudo ko'rguzub marhamat.
Agarchi bu ish bas og'ir yukdurur,
G'amu mehnati necha turlukdurur,
Uzungni bu yuk chekkali chog'lag'il,
Kamar belga himmat bila bog'lag'il.
Bu ishnng kamolig'a tolib esang,
Oning boisi ne ekandur, desang,
Degay bir-bir oni bu oshuftahol,
Topar saltanat necha ishdin kamol,
Ki, himmat biridur, shijoat biri,
Adolat biridur, siyosat biri.
Jalodat biri, biri g'ayratdurur,
Saxovat birn, biri iffatdurur.
Biri hilm keldi, birisi hayo,
Biri va'dag'a aylamaklik vafo.⁴⁸

Ogahiy uqtiradiki, hukmdor birinchi navbatda shijoatli, himmatli, adolatli, saxovatli, yumshoq tabiatli, va'daga vafo qiladigan, sof niyatli, xalqni ahvolidan xabardor bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Asarda bundan tashqari ko'plab masnaviy va qasidalar bor. Asardagi Bayoniy qalamiga mansub yana bir qasidaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda ham No'shiravonning adolatli podshoh bo'lganligiga ishora qilinadi:

Qayu shohkim, shoxlar shohidur,
Salotindin a'lo onga izzu shon.

⁴⁸ O'sha asar, 21-bet.

Erur ismi shohi Muhammad Rahim,
Bahodir abulfathi sohibqiron.
Raiyat zamonida emin bo‘lub,
Erur barcha lutfidin shodmon.
Ichib qurt ila qo‘y bir yerda suv,
Qo‘y ustida to‘rg‘ay qilur oshiyon.
Erur ahlparvar muqavviyi din
Va ham boisi amndur ham amon.
Birovga karam ilkin ochsa agar,
Hamononiki ilkidur bahri kon.
Saxovatda andog‘ki, Hotamdurur,
Adolatda andog‘ki, No‘shiravon.
Shijoat aro, uylakim, puri Zol,
Jalodat aro, uylakim, qahramon.

Bu qasidada Muhammad Rahimxonni ham adolatli hukmdor bo‘lganligi, uning hukmdorligi davrida oddiy xalq erkin yashashi hukmdorning lutfidan hamma bahramand bo‘lganligi qayd etiladi. Eng asosiysi u karam saxovatda Hotami Toyga adolati esa No‘shiravonga qiyos qilinadi.

Lirikada No‘shiravon obrazi haqida so‘z borar ekan bu obrazning o‘zbek adabiyotida salmoqli o‘ringa ega ekanligi ko‘pgina yozuvchilar bu obrazning turli jihatlarini ta’rif-tavsif etganligi ayon bo‘lmoqda. Shunday shoirlardan yana biri milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining yirik vakillardan biri Karimbek Kamiy hisoblanadi. Kamiy sermahsul mumtoz she’riyatimizning g‘azal, murabba, muxammas, musaddas, ruboiy, qit’a, fard kabi janrlarida qalam tebratgan, Ijtimoiy – falsafiy ruhdagi manzumalar yozdi. Adabiy-ijtimoiy hayotdagi eng muhim masalalarni o‘z asarlarda aks ettirdi.

Ma’lumki, 1895-yili Rusiya imperatori vafot etadi. Shu munosabat bilan “Turkiston viloyatining gazetisi”da Kamiy qalamiga mansub ta’rix-marsiya chop

etiladi. Sho‘ro adabiyotshunosligi uzoq yillar shoirni «oq podshoning maddohi» deb qoralab keldi. Lekin marsiya mazmuniga e’tibor bersak, bu da’voga butunlay teskari holatning guvohi bo‘lamiz. Shu o’rinda matnga diqqatni qarataylik:

Taammul birla boqsoq, darhaqiqat,
Qani Iskandar-u Doro bila Jam?

Qani Kayxisravu Kaykovus, Bahman,
Qani Afrosiyob-u Zol-u Rustam?

Qani Bahrom - haft iqlimni olg‘on,
Qani Qaysar, qani Fag‘furi Chin ham?

Qani Xisrav, qani Parviz-u Hurmuz,
Qani No‘shiravoni odil, mukarram?

Kelib har birlari navbat-banavbat,
Muaxxar ketti, ba’zisi muqaddam.

Bilurmusiz qayon bordi bu bari,
Bo‘ling ogoh, ey avlodi Odam.

Ajal soqiysidin no‘sh ayladilar,
Fanoning sharbatin bari, ba hardam.

Jahonni sar-basar tasxir aylab,
Aleksandr Aleksandrovich ham.⁴⁹

⁴⁹ Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Тошкент: Маънавият, 2004. 62- бет.

Demak, Kamiy aytmoqchi, tarixda dunyoni so‘raganlar ko‘p edi. Ularning bari ketdi. Qay biri oldin, qay biri keyin, baribir “ajal soqiysi”ning sharbatidan “no‘sh ayladilar”. Xuddi shuningdek, “Aleksandr Aleksandruvich ham”. Demak, bu bevafo dunyodan ketishga barcha mahkum. Kamiy aytmoqchi: “Bale, hali hama shundog‘ bo‘lg‘ay, Agar shoh-u va gar bo‘lg‘ay gado ham”. Unda shohlikdan nima ma‘ni? Butun dunyoni zabt etsa-yu, bu dunyodagi barcha “mol-u dirham»larni to‘plab, ularning manfaati tegmaydigan boshqa bir dunyoga ketaversa. Undan nima qoladi? Kamiy bunga: “Valekin qolg‘usi bir nomi neku”, — deydi. Demak, faqat yaxshi nomgina qolishi mumkin. Shoir buning isboti sifatida: “Guvohi odil ermasmu bu so‘zga, Biri No‘shiravon-u biri Hotam”, — deb No‘shiravonning odilligi-yu, Hotamning saxovatpeshaligini ibrat qilib ko‘rsatadi:

Kerak erkan tariqi adl tutmak,
Olib ibrat karamla, shohi olam.

Shoir “kerak erkan” deb poetik sintaksisda o‘tgan zamon shaklini tanladi. Chunki buni dunyodan o‘tgan Aleksandrga aytayotgan edi. Kamiy davom ettirib:

Qayu shoh bu sifatga muttasif yo‘q,
Eshitgay to qiyomat ta’n ila zam,-

deydi. Darhaqiqat, qaysi shoh odillik sifati bilan sifatlanmagan bo‘lsa, u qiyomatga qadar ta’na-yu dashnomga qoladi. Lekin bu Aleksandr IIIga qarata aytilyapti. Ustiga ustak bu marsiya Sharq she’riyatining poetik usullaridan ancha-muncha xabardor bo‘lgan N.Ostroumovning farmoyishiga ko‘ra, uning gazetasi uchun yozilgan. Mana shunday bir holatda Kamiyning o‘ris podshosining zolimligi-yu, uning adolatsizligini bundanda oshkorroq suratda aytishi mushkul edi.

Xulosa qilib aytgandsa No‘shiravon obrazi adolatli podshoh sifatida o‘zbek mumtoz adabiyotida, xususan, she’riyatda keng qo‘llanilib kelingan. Bu obraz ijodkorlarning adolatli podshoh haqidagi orzu-o‘ylarini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Xulosa

Insoniyatning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti tarixida adolat g'oyasi buyuk siymolarni e'tiborni tortib kelgan masalalardandir. Bu g'oyaning ijtimoiy va falsafiy mazmuni har bir tarixiy davr aniq sharoitning talabiga muvofiq o'zgarib borib, tobora boyib boradi. Adolat g'oyasining asrlar davomida rivojlanib borgan mazmuni insoniyatning o'z taraqqiyotida bosib o'tgan murakkab izlanish va kurash yo'lining ifodasidir. Odil podshoh g'oyasi, ma'naviy omillar asosida farovon jamiyat qurish orzulari Sharqdagi ko'p shoir va mutafakkirlar dunyoqarashlarining tarkibiy qismi bo'lgan. Bu g'oyalar o'zlarining tub ildizlari bilan xalq og'zaki ijodiyotidan boshlanadi. Adolat Sharq shoirlari qizg'in va astoydil kuylab kelgan mavzusifatida qaraladi. Sharq gumanizmning joni va qoni. Xalqparvar shoirlar mamlakat obodligi, el-ulus to'qligi, osoyishta, tinch hayotini, madaniy-ma'rifiy taraqqiyotini ko'p hollarda adolatli shoh faoliyatiga bog'lab tushuntirganlar. Firdavsiy "Shohnoma"siyu Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan tortib, balki undan oldin "Avesto" qo'shiqlaridan tortib, adolat g'oyasi va adolatli podshoh obrazini namuna qilib ko'rsatish adabiyotda uzluksiz davom etib kelgan. Jamshid, Iskandar, Bahrom Go'r No'shiravon kabi odil shohlar, Buzrukmehr, Osaf kabi dono, tadbirkor vazirlar xalqning orzu-armonlari timsolida og'izdan og'izga, asrdan asrga o'tib, turli rivoyat, hikoyatlarning yaratilishiga asos bo'lgan. O'rta Osiyo klassik shoirlari (Abulqosim Firdavsiy, Rudakiy, Nosir Xisrav, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar) o'zlarining bebaho badiiy asarlarida ajoyib pedagogik fikrlarni, jamiyat hayotiga oid insonparvarlik, halol mehnat kabi axloqiy tushunchalarni ifoda etadilar. Xususan, pedagogik tarbiyaviy ahamiyatga molik fikrlarni rivojlantirishda xalqlar orasidagi do'stlik, madaniy aloqalar katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'rta Osiyo xalqlari qadim davrdan boshlab Eron, Hindiston, Xitoy, Sibir, Sharqiy Yevropa va Kavkaz xalqlari bilan iqtisodiy, siyosiy-madaniy tomondan mustahkam aloqada bo'lganlar. Bunda O'rta Osiyoda, mahalliy xalq va qo'shni xalqning madaniy sohasidagi muvaffaqiyatlari bir-biri

bilan chatishib ketadi va sintezlashtiriladi. O'rta Osiyo xalqlari o'z madaniyatini yaratib, bu qo'shni xalqlar madaniyatini o'rganib va uning eng yaxshi xususiyatlarini ijodiy ishlab chiqib, jahon madaniyatini taraqqiy ettirib va boyitib, ilgariga qarab qadam tashladilar.

O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbek va tojik xalqlari orasidagi qadimiy do'stlik bu xalqlarning taraqqiyotiga zamin hozirladi. O'zbek adabiyoti o'zining ko'p asrlik taraqqiyoti tarixida qo'shni xalqlar adabiyoti bilan zich aloqada bo'lib, o'zaro bahramandlik qonuniyati asosida rivojlanib keldi.

Bosh qahramoni No'shiravon bo'lgan hikoyat va rivoyatlar O'rta va Yaqin Sharq xalqlari, ayniqsa, fors-tojik, o'zbek xalqlari orasida keng tarqalib kelgan. Bunday hikoyat va rivoyatlar eldan elga, og'izdan og'izga ko'chib yurgan. Buning natijasida sujet va u qamrab olgan voqealar, timsollar ham har bir xalq fikriga, tushunchalariga qarab, har bir davr talabi va muayyan davrda yashagan ijodkor istaklari asosida o'zgarib, moslashib borgan. Har bir xalq bu hikoyat va rivoyatlarda o'z orzulari ifodasini, uning qahramonlari timsolida o'zi tasavvuridagi kishilarning turmush sharoiti yaratgan g'oyalarini ko'rgan. No'shiravon nomi bilan bog'liq sujet asosida butun Sharq adabiyotida yaratilgan hikoyatlar batafsil o'rganish, ularni qiyosiy tadqiq etish maxsus tekshirishni talab qiladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida ana shu sujetda yaratilgan o'zbekcha asarlar bir muncha ko'zdan kechirildi. Biz bu yerda asosiy e'tiborni yuqorida ta'kidlaganimizdek, No'shiravon haqidagi hikoyat va rivoyatlar sujetining takomili, uning har bir asardagi ko'rinishi, o'zgarishlari va buning adabiy asar xarakterlariga ta'sirini aniqlashga qaratdik. Badiiy asar shakl va mazmun birligidan iborat yaxlitlikdir. Modomiki, shoir biror bir ma'lum sujetni bir muncha o'zgartirib keltirar ekan, demak u buni muayyan niyat bilan, muayyan g'oyani, fikr-ma'noni ifodalash maqsadida qiladi. Ijodkor tayyor sujet asosiga yangi mazmun kiritib, biror bir yangilik, yangi gap aytish maqsadi bilan asar yaratishga kirish jarayonida, o'z syujeti, badiiy vositalari, tasvir tarzi, kompozisiya va timsollari bilan mavjud asarlardan farq qilishini istaydi. Bunday paytda shoirning faqat dunyoqarashi,

ideallari, g'oyasigina emas, balki adabiy tamoyillari, ijodiy uslubi ham yaqqol aks etadi.

Ko'rib o'tgan asarlarimiz turli davrlarda dunyoga kelgan. Ularning tarixiy yaratilish jarayoni ming yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi. Shuncha davr mobaynida mazkur No'shiravon obrazi bilan bog'liq hikoyat va rivoyatlarning davom etib kelishi bir jihatdan bu obrazning yashovchangligi, xalqchilligini ko'rsatsa, ikkinchi jihatdan uning davrlar osha o'zgarib, har bir zamonga moslashib borganligini ham ifoda etadi. Chunki har bir davr, har bir adabiy muhit adabiyotga o'z ehtiyojlari nuqtayi nazaridan talab qo'ygan, o'z estetik tamoyillarini maydonga tashlagan. Bu hol ishimizda keltirilgan namunalar tahlilida ham ko'zga tashlanib turadi. Qiyosiy tahlil davomida qayd etilgan farqlar, o'zgarishlarni biz biror-bir shoirning nuqsoni, kamchiligi yoki boshqasiga nisbatan ustunligi emas, balki xuddi mana shu davr talabi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan hodisa sifatida baholashga intildik. Chunonchi, Firdavsiy «Shohnoma»sida No'shiravonning Mazdakni shavqatsiz fath etishi, donishmand shahzoda, g'azabi qattiq inson sifatida tasvirlanishi shoirning ideallaridan, «Shohnoma»dan kutgan maqsadidan, undagi timsollar galereyasining umumiy ruhidan kelib chiqqanligidan aniqlashadi. "Guliston"da No'shiravonning o'z ayonlarini adolatga chaqiruvchi shoh sifatidagi faoliyati tasvirlanganligi, XIII asrda yashagan Sa'diy Sheroziyning jamiyatga bo'lgan qarashlari, g'oyalarini aks ettirgani bilan bog'liq. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy hamda Xoja asarlaridagi tasvirlarga kelganda ham shu fikrlarni aytish mumkin, bu hikoyat va rivoyatlarda shoirlar yashagan zamon voqealari, ulug' ijodkorlarning g'oyaviy-estetik qarashlari, maqsad-muddaolarini ifoda etadi. Alisher Navoiy esa No'shiravon obrazining butun qurilishini o'zgartirib, uni mukammal ziddiyatli, muntazamlikka ega obrazga aylantirib, timsollarga yangicha talqin berib, ularda o'zining ilg'or ijtimoiy g'oyalarini aks ettirish bilan cheklanib qolmasdan, shu bilan birga uni zamonasiga bevosita bog'laydi.

Shu narsa etiborliki, Alisher Navoiy adolat g'oyasini murakkab va mavhum tushunchalar bilan emas, balki hayotdan olingan misollar asosida har tamonlama keng ma'noda sharhlaydi. Shoir asarlarida biz adolatning axloqiy, huquq va siyosiy kategoriyalar sifatida talqin qilinishini ko'ramiz. Shoir ijodida adolat, bir tomondan, ayrim shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan ma'naviy baho bo'lsa, ikkinchi tomondan, podshoh va hukmdor doiralarining ijtimoiy faoliyatlariga berilgan tavsif, ularning ma'naviy qiyofalariga nisbatan baho sifatida yuzaga chiqdi. Natijada adolat g'oyasi yolg'izgina shohlarga nisbatan emas, balki butun jamiyatning ma'naviy va siyosiy holatlariga nisbatan ham berilgan bahodan iborat bo'ladi. Shoir axloqiy qarashlarida adolatli bo'lish hukmdorlarning ma'naviy burchi sifatida o'rtaga qo'yiladi. Jumladan, Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida No'shiravonni boshqa asarlarida ko'zga tashlanmaydigan jihati, ya'ni axloq-odob bobida ham beqiyos kishilardan biri sifatida ta'rif-tavsif qiladi. Adolatli bo'lish, Alisher Navoiy fikricha, oliy axloqiy fazilatlarga ega bo'lishni ham talab etadi. Inson ma'naviy jihatdan ham, qilmishlarida ham poklikka rioya qilishi kerak. Fikrda ham, amalda ham poklik mavjud bo'lgandagina yaxshi ishlar yuzaga chiqishi mumkin. Shu o'rinda Prezident I. A. Karimovning quydagi so'zlarini eslashni joiz topdik: "Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizning vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda axloq-ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladagina iborat emas. Axloq-bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani". Adolat g'oyasi orqali Navoiy yuqori tabaqa bilan avom o'rtasidagi, hukmdorlar bilan xalq o'rtasidagi munosabatlar ustida to'xtalib, ularni gumanistik asosda hal qiladi.

No'shiravon obrazi fors-tojik adabiyotida paydo bo'lgan bo'lsada, o'zbek mumtoz adabiyotida ham salmoqli o'ringa ega bo'lgan an'anaviy obrazlar qatoriga kirganligini kuzatish mumkin. Asosan, she'riyatda No'shiravon nomi ijtimoiy ruhdagi g'azallarda masnaviylarda hamda qasidalarda tilga olinganligi

yuqoridagi tahlillarda ko'zdan kechirildi. Bunday tasvir o'zbek adabiyotida, jumladan, Sakkokiy ijodida yaqqol ko'zga tashlandi:

Boyindi taxtining qadri, o'zung toj ko'kka toshlodi,
Adolat bog'i sabz o'ldi, chu No'shiravon keldi.

Bundan tashqari o'z she'riyatida No'shiravon nomini Xorazm tarixnavisligining yirik namoyondalari Muhammad Yusuf Bayoniy va Ogahiyning asarlarida bevosita kuzatdik.

Bugungi kunda ajdodlarimiz kamolati yo'lida xizmat qiladigan mumtoz adabiyotimizning muqaddas namunalarini chuqur ilmiy tadqiq etish, ommaga ongiga singdirishning naqadar muhimligi haqiqatdir. Chunki, adabiyotini, tarixini, mumtoz merosini haqiqiy tanish xalqni yuksakka ko'taradi. Ma'naviy dunyosini teranlashtirib, xalqlar o'rtasida qadr qimmatini oshiradi. Insonlarni hamiyatli, mehr-oqibatli qilib ulg'aytiradi. Zotan, bu fazilatlar mumtoz adabiyotimizning asosiy omili bo'lgan insonparvarlik aqidalarining qon tomiridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. –Тошкент: Ўзбекистон, 1995. -275 б.
2. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1997. -325 б.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 173 b.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

4. Абдуғафуров А. Одил, Ориф, Оқил // Ўзбек тили ва адабиёти. 1988 й. 1 – сон. 20 – 23 бет.
5. Абдуғафуров А. Навоий лирикасида адолатсиз давр раддияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1967 й. 4 – сон. 9 – 14 бет.
6. Жумахўжаев Н. Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. –Тошкент: Ўзбекистон, 1995. 147 б.
7. Комилов Н. Бу қадимий санъат. -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг бўлими, 1988. -190 б.
8. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар -Тошкент: Тамаддун, 2012. -316 б.
9. Мирзааҳмедова М. Хожа ҳаёти ва ижодий фаолияти // Ўзбек тили ва адабиёти. 1963 й. 4 – сон. 62 – 66 бет.
10. Мирзааҳмедова М. Навоий ижодининг Пошшоҳўжага таъсири // Ўзбек тили ва адабиёти. 1961 й. 5 – сон. 54 – 55 бет.
11. Муҳиддинов М. Адабий анъана ва ижодий ўзига хослик. -Тошкент: Ўқитувчи, 1990. -85 б.
12. Орипов М. Алишер Навоий ижодида адолат ғояси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1973 й. 1 – сон. 3– 8 бет.
13. Орзибеков Р. Шеърый санъатлар таҳлили. Самарқанд - 2000. -82 б.

- 14.Оқбўтаев Б. Навоий одил подшоҳ ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002 й. 6 – сон. 43 - бет.
- 15.Салоҳий Д. Навоий назмиёти. Самарқанд – 2013. -139 б.
- 16.Собиров М. Халқ ҳикоятлари Навоий ижодида. -Тошкент: Ўзбекистон, 1968. -37 б.
- 17.Султон И. Жаҳон адабиётининг нодир обидаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1985 й. 6 – сон. 8 – 17 бет.
- 18.Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг «Тарихи мулки аҷам» асари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1960 й. 1 – сон. 17 – 25 бет.
- 19.Ҳомидий Ҳ. Авестодан Шоҳномагача.-Тошкент: Шарқ, 2007. -318 б.
- 20.Nojiahmedov A. Mumtoz badiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1999. -240 b.
- 21.Ғанихўжаева Н. Навоий ҳикоятларининг асосий манбалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1967 й. 4 – сон. 21 – 23 бет.
- 22.Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Тошкент: Маънавият, 2004. -461 б.

III. Lug'atlar:

23. Бердақ Юсуф. Мумтоз адабий асарлар луғати. –Тошкент: Шарқ, 2010. -528 б.
- 24.Навоий асарлари луғати. Тузувчилар П.Шамсиев, С.Иброҳимов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. -781 б.
- 25.Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. –Тошкент: Фан, 1993. -373 б.
- 26.Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. - 195 б.

IV. Badiiy adabiyotlar:

- 27.Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. –Б. 138.
28. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 11 – том. -Т.: 1993. –Б. 639.

29. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 3 – том. -Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1948. –Б. 243.
30. Абулқосим Фирдавсий. Шохнома. I китоб. -Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –Б. 732.
31. Алишер Навоий. Танланган асарлар. Тарихи мулки аҷам. 20 томлик, 16-том. –Т.: Фан, 2000. –Б. 334.
32. Абдурахмоон Жомий. Баҳористон. -Т.: Ёш гвардия, 1979. –Б. 99.
33. Абулқосим Фирдавсий. Шохнома. -Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёти, 2010. –Б. 735.
34. «Бўстон» ва «Гулистон»дан ибратли ҳикоятлар. -Т.: Муҳаррир, 2011. –Б. 61.
35. Кайковус. Қобуснома. -Т.: Ўқитувчи, 2006. –Б. 205.
36. Muhammad Avfiy. Ibratli rivoyatlar. -Т.: O‘zbekiston, 2009. –Б. 47.
37. Muhammad Avfiy. Nodir hikoyatlar. –Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. –Б. 175.
38. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. –Б. 103.
39. Муҳаммад Ризо Ерниеъбек оғли Оғоҳий. Зубдат ул-таворих. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009. –Б. 237.
40. Очилов Э. Барҳаёт сиймолар. -Т.: Ўзбекистон, 2012. –Б. 421.
41. Пошшаҳўжа. Мифтоҳ ул-адл ва Гулзордан. -Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1962. –Б. 55.
42. Саъдий. Гулистон. –Т.: Фафур Фулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. 180 б.
43. Сайфи Сароий. Шеърлар. Гулистон. -Т.: Фафур Фулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. –Б. 256.
44. Ҳусайин Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2011. –Б. 374.